جديد

2026-yil 4-sentyabr
№ 36 (140)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

MUSHTAREK MEROS



(2-sahifada o‘qing).

YETTIKUNLIK

MILLIY YUKSALISH DAVRI



Muqaddas Vatanimiz mustaqilligining qutlug‘ o‘ttiz besh yillik bayramini katta iftixor va tantana bilan nishonladik. Yangi Toshkentda o‘tkazilgan asosiy bayram tadbirlari taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘yayotganimizni, buyuk tarixiy orzularimiz ro‘yobga chiqayotganini yaqqol namoyish etdi.

Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘ladi. Shu bois, islohotlarning birinchi kunlaridanoq “Inson qadri uchun!” g‘oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqildi. Odamlarni yillar davomida qiynab kelgan “paxta qulligi”, “majburiy mehnat va bolalar mehnati”, “konvertatsiya cheklovi”, “propiska” kabi muammolarga barham berildi. Yurtdoshlarimiz yuragidagi qo‘rquv va hadik o‘rnini ishonch va xotirjamlik egalladi.

Istiqlol ayyomi o‘ziga xos hisobot hamdir. Endi yangi maqsad va rejalar kun tartibida. Kelgusi 10 yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish, 2030-yilgacha YIM hajmini 300 milliard dollarga yetkazish, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratish, startap, venchur va sun’iy intellektni rivojlantirish, kichik biznesni o‘rta, o‘rta korxonalarni esa yirik kompaniyalarga aylantirish uchun ekotizim yaratish shular jumlasidan.

Prezidentimiz belgilab bergan 7 ta strategik milliy dastur Yangi O‘zbekistonning milliy yuksalish davri uchun aniq vazifalar, katta marralardir. Xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali bu maqsadlarga erishib, kelajak avlodlarga farovon va qudratli Vatanni meros qoldirishga ishonamiz.

STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI

Biz uchun Hindiston tarixan hamma sohalarda hamkor sanaladi. Bu haqiqatni Beruniy bobomizning “Hinduston” asarida, Bobur Mirzoning “Vaqoye’” memuarida yaqqol ko‘ramiz. Ogahiy tarjima qilgan “Kalila va Dimna” ham adabiyotimiz ravnaqiga jiddiy hissa qo‘shgani ziyolilarimizga ma’lum va ravshan. Jadid bobomiz Fitrat hind sayyohi vositasida olamshumul va milliy muammolarimizni asosli ko‘tarib, ishonarli dalillar keltirgani bu ikki xalq o‘rtasida o‘xshashlik tamsilga aylanganidan darak beradi. O‘zaro munosabatlar turli davrlarda turfa darajada bo‘lsa-da, mudom taraqqiy etib, mustahkamlanib boravergan.

(Davomi 2-sahifada).

TANITIM

OTAYURTDAN ONADO‘LIGA



Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona va Islom sivilizatsiyasi markazida “Hirotga, bobomning huzuriga!” kitobining taqdimoti bo‘lganidan xabaringiz bor. Shundan keyin qardosh davlatlardan tanitim o‘tkazish haqidagi takliflar kela boshladi. .

TADORIK

Yo‘lga chiqadigan kishi odatda nima qiladi? Ot-ulovi, tuyoq-tushovi, yalovi-yu olovini hozirlaydi. Biz ham bobolar udumini tutib, ikki xurjunni to‘ldirib-to‘ldirib... kitob ortdik. Yo‘l odami non oladi, kiyim soladi, tag‘in u-bu narsa degandek... Ammo biz xurjunning bo‘g‘ziga dovur kitob soldik. Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar, Istanbulday shahri azimda boshyalang, och-u nahor qolmasmiz, degan umidimiz bor edi-da...

Bu yog‘i ham hangoma bo‘ldi. To‘rvamizni uyda o‘lchamabmiz... Sakkiz kilodan bir misqol og‘ir bo‘lsa ham yukingni o‘tkazmayman, degichlarning labi cho‘chchaydi. Mahshar kuni ikki paysa savob yetmagan gumrohdek atrofga alanglab, “Jon aka, shuginani so‘mkangizga solib keting! Bizni yuk sag‘al og‘ir keldi.

(Davomi 4-5-sahifalarda).

FAKT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashdi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar Imom Qarofiy nomidagi “Fatvo sohasidagi yuksak xizmatlari uchun” xalqaro mukofoti bilan taqdirlandi.

Akademik eshkak eshuvchilarning kattalar o‘rtasidagi jahon chempionatida Shahzod Nurmatov va Sobir Safaraliyev O‘zbekiston tarixidagi birinchi oltin medalni qo‘lga kiritdi.

7-SENTYABR – AKADEMIK IBROHIM MO‘MINOV TUG‘ILGAN KUN

IZDOSH

yoxud tafakkurni tahrir qilgan alloma



Ibrohim Mo‘minovni ko‘pchilik faylasuf olim, jamoat arbobi sifatida biladi, taniydi. Lekin u kishining muharrirlik faoliyati ham salmoqli kechgan. Muharrir deganda, ko‘pchilik matnning imlo xatosini tuzatadigan, uni qisqartiradigan, jimjimador sarlavha qo‘yadigan odamni tasavvur qiladi. Aslida, muharrir maqolalar orqali jamiyatning kun tartibini shakllantiradi, ijtimoiy fikr o‘zanini yaratadi. Kuchli nashr ortida nafaqat mualliflar va tahririyat, balki muharrir va u yaratgan tahrir maktabi turadi.

(Davomi 7-sahifada).

QUYOSH TOMLARGA QO‘NGANDA...



(6-sahifada o‘qing).

VATAN MANZUMASI

Favvoralar fayzi

Dunyodagi eng baland musiqali favvora sifatida Ginnesning rekordlar kitobidan joy olgan Yangi Toshkentdagi favvoraga bag‘ishlanadi

Otabek BAXTIYOR



Ellar bor, boshida tik minoraday –
Halokat belgisi – xavf tutunlari.
Musaffo osmonga salom yo‘llaydi,
Yangi O‘zbekiston suv ustunlari.

Yulduzga talpinar, yulduz oshig‘i,
Oqqushlar – girdida parvonalari.
Xalqimning ruhiday yuksak parvozi,
Yangi Toshkentimning favvoralari.

Boqsang, navolarga aylaydi xirom,
Hayratdan yuraklar zarb bilan tepar.
O‘ylakim, yangi uy, yangi hovlilar,
Yangi kelinchaklar bunda suv separ.

“Suvga qanot bergan qaysi omillar?”
Bir sayyoh termulib turardi hayron.
“Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir”,
Deya lutf etmishdir bobomiz Cho‘lpon.

Xizr bulog‘ini izlamadik hech,
Odam va mangulik do‘stligi mahol.
Illo, qurimasin Tinchlik dengizi,
Yurtda mangu bo‘lsin buyuk Istiqlol!

KUZATUV

DO‘PPIDEKKINA GAP



2016-yilning boshidan kuziga qadar “Madaniyat va ma’rifat” telekanalida “Tafakkur jilolari” degan ko‘rsatuvni olib borgan edim. Har gal adabiyot, san’at, ilm-fan namoyandalari bilan suhbatimiz Milliy kutubxonada suratga olinadi. Bir kuni suhbatga do‘ppi kiyib boribman. Kameralar shaylangach, xizmatdagi yigitlar “Domla, do‘ppini yechib qo‘ying”, deb iltimos qilishdi.

– Nega?

– Endi, bilasiz-ku, mumkin emas...

– Nega mumkin emas? Bu O‘zbekiston televideniyesi, ko‘rsatuv ham o‘zbek tilida, mustaqil davlat bo‘lsak?

– O‘zingiz bilasiz-ku... Ruxsat berishmaydi, baribir.

– Unday bo‘lsa, men suhbatda qatnashmayman.

– Domla, shoshmang, biz telefon qilib rahbarlardan so‘rab ko‘raylik.

– Nimani so‘raysiz? Do‘ppisi bor ekan, maylimi, debmi?

– Ha, ruxsat olvolaylik, xo‘p deyishsa, bemalol.

Men biroz asabiylashdim. “Agar shuni so‘rab telefon qiladigan bo‘lsangiz ham qatnashmayman”.

Bechora yigitlar tang ahvolda qolishdi. Men axir, boshlovchiman. Bir mashina texnika opkelishgan, alyumin relslargacha. Shuncha ovoragarchilik!

– Nima qilsak ekan?

(Davomi 6-sahifada).



MILLIY YUKSALISH DAVRI

Boshlanishi 1-sahifada.

Hatto, yopiq sovet zamonida ham hind rahbarlari, adiblari va san’atkorlarining oyoqlari yurtimizdan uzilmagan. Shuningdek, bizning millatimiz oydinlari ham bu afsonalar diyoriga tez-tez safar qilib, benazir xotiralar, asarlar yaratishgan. Zulfiyaxonimning xalqaro Javoharla’l Neru mukofotini shaxsan Indra Gandi qo‘lidan olgani hanuzgacha tillarda doston. Shoiraning o‘tli “Mushoira” dostoni, akademik shoir G‘afur G‘ulomning hind safari turkumi, Abdulla Qahhor esdaliklari, Sharof Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” va Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni kabi do‘stlik hamda xayrixohlik tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan badiiy asarlar fikrimizga asosdir.

29-30-avgust kunlari Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining O‘zbekistonga davlat tashrifi ikki mamlakat munosabatlarida muhim tarixiy voqea bo‘ldi.

Mahalliy va xalqaro ekspertlar ta’kidlayotganidek, Toshkent va Dehli munosabatlari endilikda an’anaviy do‘stlik va tarixiy yaqinlik doirasida cheklanib qolmaydi. Ular strategik hamkorlik, iqtisodiy sheriklik, texnologik almashinuv va xalqlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarga tayangan ko‘p qirrali tizimga aylanmoqda.

Narendra Modining tashrifi davomida O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarini har tomonlama strategik sheriklik darajasiga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu maqom ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy ishonchning yuqori darajasini anglatish bilan birga, hamkorlikni aniq amaliy loyihalar bilan to‘ldirish mas’uliyatini ham yuklaydi.

Eng muhimi, hamkorlikni faqat xomashyo yetkazib berish bilan cheklamasdan, geologiya, qazib chiqarish, qayta ishlash, texnologiya va kadrlar tayyorlash zanjiri asosida yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Shunda mineral resurslar iqtisodiy o‘sishning yangi manbayiga aylanadi. O‘zbekiston va Hindiston qishloq xo‘jaligida ham katta salohiyatga ega.

Aholi sonining ko‘pligi, suv resurslariga bo‘lgan talabning ortishi va iqlim o‘zgarishi har ikki davlatni agrar sohada innovatsion yechimlar izlashga undamoqda. Tashrif doirasida urug‘chilik, tomchilatib sug‘orish texnologiyalari va bog‘dorchilik sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat munosabatlarining eng ta’sirchan jihatlaridan biri – madaniy-gumanitar yaqinlikdir. Narendra Modining Toshkentdagi yoga dasturida ishtirok etishi, Yangi O‘zbekiston yodgorligiga tashrifi va sobiq Bosh vazir La’l Bahodir Shastri xotirasiga ehtirom ko‘rsatishi tashrifning ramziy mazmunini boyitdi. O‘zbek va hind musiqiy an’analari, Bollivud kuylari, katak san’ati hamda milliy madaniyat namunalarining namoyishi ikki xalq o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlikni yana bir bor ko‘rsatdi.

Termizdagi Fayoztepa va Qoratepa buddaviylik merosi obyektlarini konservatsiya va restavratsiya qilish bo‘yicha niyatlar bayonnomasining imzolanishi ham ikki mamlakatning umumiy tarixiy merosga mas’uliyatli munosabatini ifodalaydi. Hindiston fuqarolari uchun O‘zbekistonda 30 kunlik vizasiz rejim joriy etilishi xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengaytiradi.

SHHTDA O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI

1-sentyabr kuni Bishkek shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) a’zo davlatlar rahbarlari kengashining yubiley yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan ushbu sammit yakunlari xorijiy OAV va ekspertlar hamjamiyatida keng muhokama qilinmoqda.

O‘zbekiston uchun SHHT tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri.

Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining (MATT Ijroiya qo‘mitasi) aynan mamlakatimiz hududida joylashgani, Markaziy Osiyo esa SHHTning geografik va strategik asosi sifatida rasman tan olingani buning yaqqol dalilidir. Ushbu platforma orqali Toshkent bir vaqtning o‘zida o‘zaro aloqador uchta vazifani hal qilmoqda: mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, qit’aning iqtisodiy bog‘liqligini kengaytirish hamda ochiq, bloklarga qo‘shilmaslik va ko‘p vektorli siyosat yuritish. O‘zbekistonning bu boradagi qat’iyatini nafaqat siyosiy bayonotlarda, balki amaliy tashabbuslarni izchil ilgari surishda ham namoyon bo‘lmoqda.

Bishkek sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “SHHT–2040: umumiy taraqqiyot makoni” konseptual qarashni ishlab chiqish taklifi katta ahamiyatga ega. Tashkilotning 2035-yilgacha mo‘ljallangan Rivojlanish strategiyasi mavjud bo‘lsa-da, bunday uzoq muddatli hujjat kelgusi 15 yildagi taraqqiyot vektorini belgilab beradi.

Mazkur konsepsiya tashkilotning uzoq muddatli fundamental maqsadini aniqlaydi, uni investitsiyalar, texnologiyalar va bilimlar erkin harakatlanadigan, yirik infratuzilma va sanoat loyihalari amalga oshiriladigan, mintaqalar, biznes va odamlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalar kengayib boradigan o‘zaro bog‘liq va barqaror makonga aylantirishdir. Bu SHHTning hozirgi siyosiy-demografik salmog‘i (jahon aholisining 42 foizi, YIMning 36 foizi) uning ichki iqtisodiy hamkorligi (bor-yo‘g‘i 1 trln dollar) ko‘lamidan sezilarli darajada kattaroq ekani haqidagi muammoga yechim hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan sammitda ilgari surilgan eng muhim amaliy tashabbuslardan biri SHHT Sanoat kooperatsiyasi xaritasini yaratish masalasi bo‘ldi. Uning ahamiyati shundaki, bugungi kunda asosiy muammo qo‘shma loyihalarning kamligida emas, balki ma’lumotlarning tarqoqligi va tartibga solish shart-sharoitlaridagi farqlardadir.

Davlatimiz rahbari umumiy tamoyillarni muhokama qilishdan SHHT Taraqqiyot bankini amalda ishga tushirishga o‘tishga chaqirdi. Tuzilmada transport, energetika va raqamli sohalarga oid ko‘plab g‘oyalar mavjud, biroq ularni moliyalashtiriladigan loyihalarning tayyor portfeliga aylantiradigan o‘z mexanizmi yo‘q. Bank ko‘p tomonlama loyihalar uchun aynan shu institutsional bo‘shliqni to‘ldirishi mumkin. O‘zbekiston taklifining prinsipial jihati shundaki, bankning ishga tushirilishi apparat yaratish bilan emas, balki transport, energetika, sanoat va raqamli infratuzilma sohalaridagi loyihalar portfelini shakllantirish bilan bog‘lanadi. Bunda avval loyihalar, ularning qiymati va kutilayotgan samara, so‘ngra bankning kapitali va tuzilmasi belgilanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev XXR Raisi Si Szinpinning Sun’iy intellekt sohasida hamkorlik bo‘yicha butunjahon tashkilotini tashkil etish to‘g‘risidagi tashabbusini olqishlab, SHHTning ushbu yangi texnologik alyans bilan sheriklik o‘rnatishini taklif qildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan iqlim o‘zgarishi, suv, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi uchun yagona kun tartibini ishlab chiqish, temir yo‘l makonlari integratsiyasi bo‘yicha kengash ta’sis etish, Afg‘oniston bilan muntazam muloqotni qayta tiklash, qardosh xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlash maqsadida 2028–2030-yillarga mo‘ljallangan an’anaviy san’at va nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash hamda ommalashtirish bo‘yicha hamkorlik dasturini tayyorlash tashabbuslari ham mamlakatlarimiz taraqqiyoti, xavfsizligi va mintaqaviy iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish, SHHTni yaqin kelajakda global taraqqiyot markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Iqbol MIRZO

MUSHTARAK MEROS

Toshkent shahri hamda Bo‘stonliq tumanida o‘zbek-qozoq adabiyoti vakillari ishtirokida “Turkiy dunyoning ma’naviy merosi: adabiyot – davrlar va avlodlar muloqoti” mavzusida xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Mazkur nufuzli anjuman O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi, Birinchi turkologiya qurultoyining 100 yilligi hamda buyuk mutafakkirimiz Mir Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi munosabati bilan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi, har ikki davlatning Yozuvchilar uyushmalari hamda Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi hamkorligida tashkil etilgan ushbu anjuman qardosh xalqlar o‘rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida muhim tarixiy qadam bo‘ldi.



Milliy adabiyotimizning keng jug‘rofiyasiga nazar tashlasak, bugun biz qurayotgan yangi kelajakning ma’naviy poydevoriga “shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas”, deya yeng shimargan necha-necha jonkuyar me’morlarni ko‘ramiz. Ular orasida qo‘shni davlatlarda tug‘ilgan so‘z zargarlari ham bisyor. Misol uchun, Qozog‘iston zamini o‘zbek romanchiligi va she’riyatiga Odil Yoqubov, Mirtemir hamda Nosir Fozilovlarni tuhfa etdi. Qirg‘iziston tuprog‘i ulug‘ olim Alixonto‘ra Sog‘uniy, Shavkat Rahmon va Tursunboy Adashboyevni voyaga yetkazdi. Tojikiston esa o‘lmas tarixiy romanlar muallifi Pirimqul Qodirov singari bir qator adiblarimizning kindik qoni to‘kilgan go‘shadir. Masalan, “Toshkentni sevmoqlik yurakning ishi, Shu uchun shartmikan bunda tug‘ilmoq!” degan edi “Nizomiy vatani, Ganja o‘lkasi”da voyaga yetgan ozarbayjon shoiri Maqsud Shayxzoda o‘zining mashhur “Toshkentnoma”sida...

Toshkentdan uzoqlashmaymiz... Dunyo ahliga ne-ne allomalar, so‘z zargarlari, yetuk shaxslarni bergan bu aziz tuproqda tug‘ilib o‘sgan, qo‘shni davlatlarning rivojiga mislsiz hissa qo‘shgan insonlar ham talaygina, albatta.

XX asr qozoq adabiyotining zabardast namoyandasi, taniqli yozuvchi, dramaturg va tarjimon Raxmetolla Rayimqulov ham ana shunday adiblardan biridir. U 1913-yilda Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumaniga qarashli Qaramanas qishlog‘ida dunyoga kelgan va shu muhitda ijodiy kamol topgan. Yozuvchi o‘zining “Yashil dovon”, “Tuyali odam” qissalari va mashhur “Qora yo‘rg‘a” romani bilan qozoq nasrining yuksak cho‘qqilarini zabt etdi. Uning hayot yo‘li va kamoloti bevosita Toshkent adabiy-ma’rifiy muhiti bilan bog‘liq. Avval Toshkentdagi qozoq pedagogika texnikumida tahsil olgan, mahalliy “Alg‘a” gazetasiga muharrirlik qilgan Raxmetolla og‘a keyinchalik Olmaotada jurnalistika bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan... Ikkinchi Jahon urushidan qaytgach esa Qozog‘iston Milliy universitetida talabalarga saboq bergan. Shu bilan birga, Yozuvchilar uyushmasi va nufuzli adabiy nashrlarda uzoq yillar turli lavozimlarda xizmat qilgan. Ayniqsa, Sadriddin Ayniyning mashhur “Buxoro” trilogiyasini qozoq tiliga o‘girgan mohir tarjimon sifatida ham tanilgan. Ikki xalqning adabiy aloqalarini rivojlantirgani va jasoratli xizmatlari uchun bir necha orden va medallar bilan taqdirlangan.

Faoliyatining dastlabki yillarida adib o‘zi tahsil olgan maktabda bir muddat dars bergan edi. Xalqaro anjuman doirasida mazkur ta’lim muassasasiga – Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi 34-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga ikki elning ardoqli farzandi Raxmetolla Rayimqulov nomi berilishi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Yangi o‘quv yili va Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan “Yagona vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori ostidagi “Birinchi qo‘ng‘iroq” marosimida O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlik, yaxshi qo‘shnichilik va do‘stlik munosabatlarining ahamiyati alohida ta’kidlandi. Unda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Malik Otarbayev, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Mereke Kulkenov, Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Yerali To‘g‘janov, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi prezidenti, professor Akto‘ti Raimkulova, shuningdek, qozoq adabiyoti va madaniyati namoyandalari, yozuvchilar, jurnalistlar va adabiyotshunoslar ishtirok etdi.

Tantanali marosim jonajon Vatanimizning Davlat madhiyasi bilan boshlandi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning yangi o‘quv yili hamda Bilimlar kuni munosabati bilan mamlakatimiz o‘quvchi yoshlari, jonkuyar ustoz va murabbiylar, ota-onalarga yo‘llagan samimiy tabrigini o‘qib eshittirdi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri E’zozxon Karimova, viloyat va tuman hokimliklari vakillari, tuman Kengashi deputatlari, mahalla faollari, pedagoglar hamda ota-onalar so‘zga chiqdi. Ular ta’limga e’tibor va O‘zbekiston–Qozog‘iston hamkorligi tobora mustahkamlanayotganini ta’kidladi. Shundan so‘ng “Birinchi qo‘ng‘iroq” yangradi. Jajji o‘quvchilar ijrosidagi o‘zbek va qozoq xalq folklori namunalari bayram ishtirokchilariga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

Tadbir doirasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mita hamda Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi tomonidan maktab kutubxonasiga kitoblar topshirildi. Keyin “Raxmetolla Rayimqulov: avlodlarni birlashtiruvchi meros” mavzusida ijodiy uchrashuvlar va ochiq dars o‘tkazildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil va totuvlikda istiqomat qilmoqda. Millati, tili va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir bolaning sifatli ta’lim olishi, o‘z iqtidori va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar yaratish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu ma’noda, yangi o‘quv yilining boshlanishi minglab oilalar hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Joriy 2026/2027-o‘quv yilida 800 mingga yaqin bola ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘yadi. Qaramanas qishlog‘ida o‘tkazilgan ushbu tadbirda ham birinchi sinf o‘quvchilariga “Prezident sovg‘asi” tantanali ravishda topshirildi.

Tadbir doirasida Raxmetolla Rayimqulov nomidagi kutubxonaning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda adibning qizi – taniqli davlat va jamoat arbobi, Xalqaro Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi prezidenti, professor Akto‘ti Raimkulovaning otasi haqida xotiralari anjumanga alohida ruh va hayajon bag‘ishladi.

3-sentyabr kuni forum Toshkent shahrida davom etdi.

Ma’lumki, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlarining qozoq adabiyotiga ta’siri, avvalo, Abay Qo‘nonboyev ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘zining ilk



she’rlaridan birida Navoiyni Fuzuliy, Sa’diy, Firdavsiy va Hofiz singari buyuk shoirlar qatorida tilga olib, ulardan “medet” – madad so‘raydi. Abayshunos va atoqli adib Muxtor Avezov esa Abay hazrat Navoiyni “o‘ziga eng yaqin ustoz” deb bilganini ta’kidlaydi.

Ana shu adabiy yaqinlik ruhida kechgan tadbirlar Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi bilan boshlandi. Forum dasturidan “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” mavzusidagi kitoblar ko‘rgazmasi, Birinchi Boku turkologiya kongressining 100 yilligiga bag‘ishlangan arxiv materiallari namoyishi, maxsus sessiya hamda “Turkiy dunyo adabiy hamkorligining yangi ufqlari” mavzusidagi davra suhbati o‘rin oldi.

Forumning tantanali ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Xayriddin Sultonov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Malik Otarbayev, O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Yerali Tug‘janov, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi Mereke Kulkenov, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko‘chimov hamda Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi prezidenti Aqto‘ti Raimqulova, shuningdek, O‘zbekiston va Qozog‘iston yozuvchilari, olimlari, tarjimonlari ishtirok etdi. Forumning yalpi majlisini O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid boshqarib bordi.

Anjuman doirasida “O‘zbekiston va Qozog‘iston adabiy muloqoti: umumiy meros, zamonaviylik va hamkorlikning yangi ufqlari” mavzusidagi sessiya bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakat adabiyoti o‘rtasidagi tarixiy va bugungi aloqalar, mushtarak adabiy meros, ijodiy hamkorlik, asarlarni o‘zaro tarjima qilish va nashr etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov “XX asr 20-yillari o‘zbek-qozoq adabiy aloqalari haqida” mavzusida ma’ruza qildi. Unda ikki xalq adabiyoti o‘rtasidagi tarixiy yaqinlik, ijodiy ta’sir va o‘sha davr adabiy jarayonlarining o‘zaro mushtarak jihatlari haqida fikr yuritildi. Qozog‘istonlik adabiyotshunos, tanqidchi va publitsist, filologiya fanlari doktori, professor Qulbek Yergobek ham sessiyada ma’ruza bilan ishtirok etdi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov “Alisher Navoiy va Nizomiy Ganjaviy adabiy merosining umumbashariy ahamiyati” mavzusida so‘z yuritdi.

Qozog‘istonlik yozuvchi va publitsist, Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Qanat Oltinbek “Tarixiy taqdirdosh, adabiy tomirdosh ikki xalqning adabiyot maydoni” mavzusida ma’ruza qildi. Unda o‘zbek va qozoq xalqlarini birlashtirib turuvchi tarixiy xotira, mushtarak qadriyatlar hamda adabiy an’analar haqida so‘z bordi.

Sessiya doirasida O‘zbekiston va Qozog‘istonda nashr etilgan kitoblar taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakat ijodkorlarining asarlari, adabiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilayotgan yangi nashrlar namoyish etildi.

Mazkur xalqaro forum doirasida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Hujjat O‘zbekiston va Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmalari raislari hamda Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi prezidenti tomonidan imzolandi.

Qizg‘in taassurotlar va qardoshlar diydori zavqi bilan kechgan forum ikki xalqni bog‘lab turgan ma’naviy kuchni yana bir bor namoyon etdi.

Sh.IBROHIMOV

SARHISOB

INSON VA QADR

O‘ttiz besh yil – tarix uchun bir lahza. Inson umri uchun esa katta bir davr. Bu yil O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligining 35 yilligini nishonladi. O‘ttiz besh yil davomida mamlakatimiz o‘zining mustaqil davlat sifatidagi salmoqli yo‘lini bosib o‘tdi. Bu yo‘l oson kechmadi. Unda izlanishlar ham, sinovlar ham, yutuqlar ham, murakkab qarorlar ham bo‘ldi. Ammo bugun, 35 yillik tariximizga nazar tashlar ekanmiz, bir savol, ayniqsa, muhim: “Mustaqillik inson hayotida nimani o‘zgartirdi?” Menimcha, bu savolga javob berishning eng to‘g‘ri yo‘llaridan biri – bir asrga yaqin umr ko‘rgan inson bilan suhbatlashishdir.

Yaqinda Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani, Zarkent qishlog‘ida istiqomat qilayotgan, 90 yoshga yaqinlashib qolgan donishmand ustozim Sobirjon Otajonovning ziyoratiga bordim. U kishi biz akademik litseyda o‘qigan vaqtimiz direktor bo‘lib ishlagan, mamlakatimiz tarixining bir necha davrini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, davlat boshqaruvida turli sinovlarni boshidan kechirgan, hayotning past-balandini teran anglagan inson. Suhbatimiz uzoq davom etdi. Gap mamlakat taqdiri, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim, qishloq hayoti, yoshlar, tadbirkorlik va, albatta, mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlar haqida bordi.

Ustozning so‘zlarida men bir narsani yaqqol his qildim: Mustaqillikning eng katta ma’nosi – davlatning o‘z taqdirini o‘zi belgilashida bo‘lsa, uning eng yuksak natijasi insonning o‘z hayotini erkin qurish imkoniyati kengayishida namoyon bo‘ladi. 35 yilni bayram emas, natija bilan o‘lchaylik.

Mustaqillikning 35 yilligi haqida gap ketganda, odatda, davlatchilik, milliy ramzlar, iqtisodiy yutuqlar, tashqi siyosat, qurilishlar, yangi shaharlar va korxonalar haqida so‘z yuritiladi. Bularning barchasi muhim. Ammo men bugun boshqa mezonni taklif qilmoqchiman. O‘ttiz besh yilni inson hayoti bilan o‘lchaylik. 1991-yilda tug‘ilgan bola bugun 35 yoshda. U mustaqil O‘zbekiston bilan birga ulg‘aydi. Uning bolaligi, yoshligi boshqa bosqichda, mehnat faoliyati esa Yangi O‘zbekiston davriga to‘g‘ri keldi. Shu bir avlod hayotining o‘zi mamlakatimizdagi o‘zgarishlarning tirik xronikasidir. Uning dunyoqarashidagi o‘zgarishni, ta’lim imkoniyatlarini, kasb tanlash erkinligini, ilg‘or texnologiyadan foydalanishini, xorijga chiqishi, tadbirkorlik qilish imkoniyatini kuzatsangiz, 35 yillik mustaqillikning mazmunini his qilish mumkin.

Biroq bugungi o‘zgarishlarni to‘liq anglash uchun undan ham uzoqroq tarixiy xotira kerak. Sobirjon domlamizning hayot yo‘llari ana shu ma’noda noyob mezondir. U sovet davrini ham, mustaqillikning dastlabki yillarini ham, keyingi islohotlarni ham ko‘rdi. Shuning uchun u kishining bahosi oddiy kuzatuvchining emas, tarixni yashab ko‘rgan insonning bahosidir. Suhbatimizda ustoz so‘nggi yillardagi islohotlarga juda yuqori baho berdi.

– Men ko‘p davrlarni ko‘rdim, – dedi u kishi. – Davlat boshqaruvida turli sinovlarni boshdan kechirdik. Lekin keyingi o‘n yillardagi o‘zgarishlarning eng katta farqi – davlatning insonga munosabati o‘zgarganida.

Bu gap meni o‘ylantirdi. Chunki keyingi o‘n yilliklarga nazar tashlasak, davlatchilikning mazmuni ham bosqichma-bosqich boyib borganini ko‘ramiz. Avval mustaqil davlatni barpo etish, uning huquqiy asoslarini yaratish, davlat institutlarini shakllantirish vazifasi amalga oshirildi. Keyin iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash zarurati oldinga chiqdi. Bugun esa biz boshqa bosqichdamiz. Davlatning asosiy vazifasi inson uchun qanday sharoit yaratish ekani haqida yanada qat’iyroq gapiryapmiz. Bu – mustaqillikning mazmunan yangi bosqichidir. Ustoz, xususan, valyuta konvertatsiyasi muammosining hal etilganini alohida ta’kidladi. Bugun buni yosh avlodga tushuntirish ham oson emas. Chunki ular uchun xorijiy valyuta sotib olish, xalqaro to‘lovlarni amalga oshirish, chet elga chiqish yoki xorijiy kompaniyalar bilan ishlash hayotning oddiy bir qismiga aylangan.

Ammo bundan bir necha yil oldin vaziyat mutlaqo boshqacha edi. 2017-yilda valyuta bozorini liberallashtirish va konvertatsiyani erkinlashtirish bo‘yicha qat’iy qarorlar qabul qilindi. Iqtisodchi uchun bu – valyuta bozori islohoti. Tadbirkor uchun – biznes yuritish erkinligi. Ota-ona uchun – farzandini xorijda o‘qitish, fuqaro uchun – o‘z mablag‘ini erkin tasarruf etish imkoniyati. Demak, iqtisodiy islohotning ortida inson erkinligi turibdi. Mustaqillikning mohiyati ham aslida shu emasmi?

Sobirjon domla davlatning iqtisodiy qarorlarida inson qadriga e’tibor va uning imkoniyatlari kengayishi, energiya sohasidagi o‘zgarishlar, yo‘llar, qishloqlardagi sharoitlar haqida gapirdi. Bu masalalarga ham mustaqillikning 35 yilligi nuqtayi nazaridan qarash mumkin. Chunki mustaqillik faqat davlat bayrog‘i va davlat chegarasi emas. U – insonning kundalik hayotida namoyon bo‘ladigan imkoniyatlardir. Qishloqdagi yangi yo‘l – mustaqil taraqqiyotning bir ko‘rinishi. Yangi elektr tarmog‘i – iqtisodiy mustaqillikning bir qismi. Yangi maktab – intellektual mustaqillikning asosi. Internet – axborot mustaqilligining vositasi. Yangi korxona – iqtisodiy mustaqillikning tayanchi. Tadbirkorning erkinligi – insonning o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyati. Shuning uchun bugun mustaqillik tushunchasiga faqat siyosiy-huquqiy kategoriya sifatida qarash kamlik qiladi. Mustaqillik insonning munosib hayot kechirish imkoniyatiga aylangandagina, o‘zining to‘liq mazmunini topadi.

Ustozimizning eng ta’sirli fikrlaridan biri paxtadagi majburiy mehnatga barham berilgani haqida bo‘ldi. U kishi buni Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat’iy siyosiy irodasi bilan bog‘lab, juda katta tarixiy qadam sifatida baholadi. Menimcha, bu masala mustaqillikning 35 yillik tarixida alohida o‘rin tutadi. Nega? Chunki bu yerda gap faqat paxta o‘simligi haqida emas. Gap inson haqida. Bir insonning vaqtini kim belgilaydi? U qayerda mehnat qilishini kim hal qiladi? Uning farzandi qachon ta’lim oladi? O‘qituvchi sinfxonada bo‘ladimi yoki dalada? Talaba auditoriyada o‘tiradimi yoki paxta terimiga chiqadimi? Mana shu savollarga berilgan javoblar inson qadriga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatadi.



Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilga kelib O‘zbekistonda paxta sohasida tizimli bolalar mehnati va majburiy mehnat amaliyoti tugatilgani qayd etilgan. Monitoringda qatnashgan paxta terimchilarining 99 foizi o‘z xohishi bilan mehnat qilgan. Keyinchalik O‘zbekiston paxtasiga nisbatan xalqaro boykot ham bekor qilindi. Bu o‘zgarishni men Mustaqillikning inson hayotidagi eng muhim natijalaridan biri, deb hisoblayman.

Sobirjon domla bilan xayrlashar ekanmiz, suhbat davomida aytilgan bir fikr yana xayolimda aylandi: davlatning qudrati fuqaroning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchida bilinishi kerak.

Shuhrat YOQUBOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



> Ko‘rdimki, eng yaxshi do‘st ilm ekan.
>
> Najmiddin KUBRO

ONAJONIM – TABIAT

YASHIL TAFAKKURNING *uyg‘onishi*

O‘ttiz besh yil... Insoniyat tarixi oldida bu kiprik qoqqulik fursatdir, ehtimol. Ammo shu davrning har bir kuni, har bir soniyasi millatimiz uchun tiklanish, anglash va yaratish maktabi vazifasini o‘tab bermoqda. Xo‘sh, bu tiklanish bizga nimani o‘rgatdi? Eng avvalo, asl o‘zligimizga, azaliy tomirlarimizga qaytishni o‘rgatdi. Fikrimizni ekologiya, atrof-muhit muhofazasi mavzusida davom ettiraylik. Axir, tabiatni asrab-avaylash biz uchun xorijdan kirib kelgan qandaydir yangilik yoki zamonaviy trend emas. Bu necha asrlardan buyon qon-qonimizda yashab kelayotgan, avloddan avlodga ko‘chib o‘tgan buyuk tuyg‘u! Ota-bobolarimiz bejizga “Suvga tuflama”, “Axlatni ariqqa supurma”, “Birni kessang, o‘nni ek”, deya uqtirishmagan. Shu ma’noda, tabiatga mehr, borliqni muqaddas bilish bevosita milliy qadriyatlarimiz ildiziga borib taqaladi.

Biroq tan olish kerak, yaqin o‘tmishda mana shu buyuk merosdan, shu tabiiy muvozanatdan uzilib qolgan edik. Keling, yurtimizda Istiqlol shodiyonalari davom etayotgan shukuhli kunlarda kechagi va bugungi kunimizni, ekologik madaniyatimizdagi past-balandliklarni tarix manzaralarida taqqoslab ko‘raylik.

TABIAT TOVON SO‘RAYDI

O‘tgan asrning 90-yillari boshlarini yodga olaylik. Uzoq davom etgan mustamlaka tuzumi inson va tabiat o‘rtasidagi azaliy rishtalarni shafqatsizlarcha uzib tashlagan edi. Odamlar ongida tabiat faqat xomashyo manbayi, “boylik undiriladigan karyer” sifatida gavdalanardi. Qadriyatlar toptaldi. “Yuqori”ning tuganmas rejasini bajarish ilinjida yer ayovsiz ekspluatatsiya qilindi, ikki azim daryoning suvi shafqatsizlarcha sovurildi. Tabiat muvozanatiga qo‘pol aralashuvning tovoni juda og‘ir bo‘ldi. Kechagina to‘lqinlari qirg‘oqqa urilib, minglab odamlarga rizq ulashgan ulkan Orol dengizi ko‘z o‘ngimizda yo‘qlikka chekina boshladi. Oqibatda hayot qaynagan dengiz o‘rnini bepoyon sahro, osmonda charx uradigan qushlar o‘rnini esa sho‘r va zaharli chang-to‘zon egalladi.

Ekologik madaniyat tushunchasi deyarli yo‘qolib, atrof-muhit haqida qayg‘urish faqat qog‘ozdagi baland-parvoz shiorlar ichida qolib ketgan eng og‘ir yillar edi bu. Ota-bobolardan meros suvni e’zozlash odati unutildi, daryo va ko‘llarimiz sanoat chiqindilari bilan ayovsiz ifloslantirildi. Odamlar tabiatni qutqarish haqida o‘ylashga majolsiz, kundalik tirikchilik tashvishlari bilan o‘ralashib qoldi. Birgina achchiq haqiqatga e’tibor qarating: mustaqillikning dastlabki 30 yili mobaynida Orolning qurigan tubida bor-yo‘g‘i 300-325 ming gektarda o‘rmonzor tashkil etilgan edi, xolos. Bu ulkan fojia oldida dengizdan tomchidek gap.

2010-yillarning o‘rtalaridagi manzarani bir zum ko‘z o‘ngingizga keltiring. Qachonlardir zilol suv oqqan ariqlarimiz yelim idishlar va axlat uyumlariga to‘lib qolgan, bu holatga go‘yoki hamma ko‘nikib ulgurgan edi. Eng dahshatlisi, ne-ne tariximizga guvoh bo‘lgan, bobolarimiz o‘z qo‘llari bilan ekkan asrlik chinorlarning shafqatsiz benzoarralar tig‘i ostida gursullab qulashi bo‘ldi. Bu ayovsizlik manzarasi har bir vijdonli insonning yuragini tirnardi. Ko‘z o‘ngimizda go‘zal va yashil shaharlarimiz nafas olib bo‘lmaydigan, yozning saratonida otashdek qiziydigan beton va asfalt “yaylov”lariga aylanib bordi. Tabiatning ingrashiga nisbatan bunday karlik va soqovlik, atrof-muhitga nisbatan shafqatsiz ekologik loqaydlik jamiyatimizning eng xavfli, eng og‘riqli kasalligiga aylanib ulgurgan edi.

Bo‘shagan yelim idishni mashinasining oynasidan xotirjam uloqtirib ketayotgan haydovchilarni ko‘rsak-da, indamasdik. Tabiatni asrash to‘g‘risidagi gaplar majlislar zalida, gazetlar sahifasida qolib ketar, amalda ekologik madaniyat jamiyatning kundalik hayotiga umuman kirib bormagan edi. Tabiat boyliklaridan xuddi ertaga hayot tugaydigandek, faqat bugungi kun manfaati yo‘lida foydalanish avjiga chiqqandi. Masalan, 2021-yilgacha mamlakatimizda “yashil” energetika ulushi nolga teng bo‘lgani ham o‘sha paytdagi resurslarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganimizni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

“MOTTAINAY” – “UVOL BO‘LADI”

Sayyoramizning ilg‘or davlatlari bu inqirozli bosqichdan allaqachon o‘tib, tabiatni asrashni davlat darajasidagi qadriyatga aylantirishga ulgurgan. Masalan, Yaponiyaning Kamikasu degan mo‘jazgina shaharchasi bor. U yerda chiqindi tashlash uchun umumiy idishning o‘zi yo‘q. Aholi har bir chiqindini – qog‘oz, shisha, yelim, metall va boshqalarni 45 xil toifaga ajratib, maxsus qutiga tashlaydi. Bu jarimadan qo‘rqish yoki majburiyat taqozosidan qilinmaydi. Yaponlarda “Mottainay” degan milliy falsafa bor. Bu tushuncha “atrof-muhitdagi har bir narsaning uvoli bor, unga hurmatsizlik qilish kechirilmas xatodir”, degan ma’noni anglatadi. Axir, bu ota-bobolarimiz tilidan eshitib ulg‘ayganimiz – “uvol bo‘ladi” degan azaliy tushunchamizning xuddi o‘zi-ku!

Singapurni olaylik. O‘tgan asrning 60-yillarida bu mitti davlat chiqindilarga botgan, daryolaridan badbo‘y taraladigan, daraxtsiz va dim bir o‘lka edi.





Islomjon QO‘CHQOROV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi raisi o‘rinbosari

Tabiiy boyliklari, hatto ichimlik suvi ham bo‘lmagan bu yurt bugun dunyodagi “Bog‘ ichidagi shahar” nomini olgan eng toza va yashil mamlakatga aylandi. Xo‘sh, ular bu mo‘jizaga qanday erishdi? Davlat asoschisi Li Kuan Yu iqtisodiy islohotlarni osmono‘par binolar qurishdan emas, bevosita daraxt ekishdan, atrof-muhitni tozalashdan boshladi. O‘n yil davomida eng iflos va hayot so‘ngan Singapur daryosi tinimsiz mehnat evaziga tozalanib, tiniq obi hayot manbayiga aylantirildi. Biroq eng asosiy yutuq faqatgina qat’iy qonunlar yoki katta jarimalar bilan o‘lchanmaydi. Ular, eng avvalo, millatning ongini, ekologik madaniyatini tarbiyaladi, yuksaltirdi. Bog‘cha boladan to davlat rahbarlarigacha har bir daraxt yaprog‘ini, har bir qarich yerni avaylab-asrashni o‘rgandi. Bugun Singapurda hatto betondan tiklangan osmono‘par binolarning devorlari-yu tomlarida ham yam-yashil bog‘lar barq urib, yashnab turibdi. Tabiatni asrash davlat majburiyatidan butun millatning hayotiy zaruratiga, buyuk tafakkur inqilobiga aylandi.

HAR QARICH TUPROQ – MUQADDAS

Bugungi Yangi O‘zbekiston ana shunday ilg‘or global tajribani o‘zining qon-qoniga singgan milliy qadriyatlari bilan uyg‘unlashtirmoqda. Endi ekologik madaniyat baland minbarlardan aytiladigan quruq da’vat emas. U chinakam umummilliy harakatga, har bir insonning ichki ehtiyojiga aylanib bormoqda. 2023-yilda xalqimiz ovozi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor “ekologik huquq” tushunchasi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Amaliy natijalar ham shunga hamohang. Orolning qurigan tubida so‘nggi besh yilning o‘zida qariyb 2 million gektar maydonda “yashil qoplama”lar barpo etildi. Tasavvur qilyapsizmi, o‘ttiz yilda orzudek ko‘ringan ish besh yil ichida amalga oshirildi! Davlatimiz rahbarining qat’iy siyosiy irodasi bilan daraxtlarni kesishga muddatsiz moratoriy e’lon qilinishi, “Yashil makon” umummilliy harakati doirasida har yili millionlab tup nihol qadash an’anasi butun millatning yashil tafakkurini uyg‘otib yubordi.

Eng hayratlanarli natijalar energetika sohasida yuz berdi. Yaqin o‘tmishda lug‘atimizda ham mutlaqo bo‘lmagan, ko‘rsatkichi nolga teng bo‘lgan “yashil” energetika quvvatlarimiz bugun aql bovar qilmas darajada o‘sdi. Birgina 2026-yil boshidan buyon quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 6 milliard kVt/soatga yetdi. Bu bir qarashda chiroyli raqamlarga o‘xshab ko‘rinadi. Aslida, bu millionlab kub metr tejab qolingan tabiiy boylik, atmosferaga chiqarilishining oldi olingan yuz minglab tonna zaharli tutun demakdir.

Bu ulkan o‘zgarishlarning ildizini mustahkamlash, uni ortga qaytmas jarayonga aylantirish maqsadida 2025-yilda tarixiy hujjat – 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, ertamiz egalari bo‘lgan 3,3 million nafar bog‘cha bolalari va 4,2 million nafar maktab o‘quvchilarining pokiza qalbiga tabiatga mehr urug‘lari qadalmoqda. Demak, biz bugun faqatgina zavodlar qurib, iqtisodiyotni o‘stirmayapmiz. Biz tabiatni o‘z jonidan ortiq suyadigan, sog‘lom va ekologik toza fikrlaydigan butun boshli yangi avlodni – kelajakning haqiqiy vorislarini tarbiyalayapmiz!

Ekologiya yo‘nalishida qabul qilingan qarorlarimizning eng katta yutug‘i nimada, bilasizmi? Qonun va farmonlar qog‘ozlarda qolib ketmayapti. Odamlar bu o‘zgarishlarning nafasini o‘z vujudida, kundalik hayotida bevosita his qilmoqda.

Yaqin o‘tmishimizni eslaylik: shaharlarimizning “o‘pkasi” bo‘g‘ilgan, keksa chinorlar shafqatsiz beton va asfalt iskanjasida jon taslim qilayotgan edi. Oilaviy sayr qilish u yoqda tursin, jaziramada jon saqlashga bir qarich soya-salqin joy topilmay qolgandi. Ana shunday dim va og‘ir pallada poytaxtimiz yaqinida yuzlab gektar toshloq maydonda mo‘jiza yanglig‘ qad rostlagan muhtasham “Yangi O‘zbekiston” bog‘i chinakam najotga aylandi. Bunday yashil uyg‘onish faqatgina poytaxt bilan cheklanib qolmadi. Bugun respublikamizning barcha viloyat markazlariga tutash hududlarda ulkan dendrologiya bog‘lari, minglab gektar maydonlarni egallagan yangi yashil jamoat parklari yaratilmoqda. Bir paytlar tashlandiq, chang ko‘tarilib yotadigan yerlarda bugun noyob manzarali daraxtlar bo‘y cho‘zmoqda. Shaharlarimiz atrofida halqa shaklida barpo etilayotgan “yashil belbog‘lar” esa tobora avj olayotgan global iqlim o‘zgarishlari, qum va chang bo‘ronlarining yo‘lini to‘sib turuvchi, millat salomatligini asrovchi chinakam tabiiy qalqonga aylandi.

Bugun o‘ttiz besh yillik tarixiy dovonda turibmiz. Qad rostlayotgan yangi binolar, ochilayotgan zavodlar-u qurilayotgan maktablar xalqimiz farovonligi uchun xizmat qiladi, albatta. Ammo farovonlik faqat iqtisodiy o‘sish bilan o‘lchanmaydi. Agar nafas olishga musaffo havo, ichishga toza suv, sayr qilishga yashil bog‘larimiz qolmasa, har qanday boylik o‘z qadrini yo‘qotadi. Vaqt karvoni shiddat bilan o‘tib boraveradi. Oradan yana o‘ttiz besh yil o‘tadi. Bizdan keyingi avlod biz qurgan binolarga qarab emas, biz qoldirgan musaffo havoga, biz asragan tabiatga qarab baho beradi.

OTAYURTDAN



Boshlanishi 1-sahifada.

Eson-omon qo‘ngach, qaytib olamiz!” deya zorlanganimizni ko‘ring. Bechoralar maktabda ancha yurak oldirib qo‘ygan, shekilli, kitobni ko‘rsa, tepa sochi tikka-tikka bo‘lib, burun jiyirib o‘tdi. Tag‘in olomon oralab o‘tganketganga gadoydek shumshayib “Bittagina kitob oling!” deya elanamiz. Endi haligilarni ko‘ring, xuddi chaqib oladigandek, go‘yo biror dardi bedavo yuqadigandek, o‘zlarini ikki farsang nari olib, yetti mahalla nari qochishdi. Bir tomoni xavfsizlik nuqtayi nazaridan ularni ham tushungim keladi. Lekin... Tashlab ketay desang, uvol... O‘zi shuning uchun ketayotgan bo‘lsak. Kinoda aytilganidek, “Ha, o‘nta qo‘y nima bo‘lardi...”

Bundan bir ish chiqmasligini chamalab, yana tarozibonga mo‘ltaydik. Yetmaganiga zo‘rlik qilamiz ham: “Bu jonivor kitob bo‘lsa, nimasi ortiqcha? Ilmning og‘ir-yengili bo‘larkanmi? Anavi yo‘lovchi naqd ikki yuz kilo chiqishi aniq. Ikkimizni qo‘shib hisoblasangiz, kalla-poycha aralash yuz yigirma tosh bosamizmi-yo‘q, Xudo biladi. O‘lsin endi, to‘rtta kitob solingan qopchiq yigirma kilo bo‘lsa...” Xullas, u dedik, bu dedik, har qalay, kitoblarni tekinga o‘tkazib oldik. Basavlat bir amakining biqini tomonda amal-taqal qilib joylashgach, kamarni bog‘ladik, havoga ko‘tarildik.

YEVROPADAGI ILK TAQDIMOTIMIZ

Bir zamonlar farang imperato‘ri bo‘lgan Napoleon Bonapartga nisbat beriladirg‘an bir kalom bor: “Agar butun dunyo bir davlat bo‘lsa, aning poytaxti Konstantinopol bo‘lur erdi”. Bu so‘zni u qachon va qay holda aytgani bizga ma’lum emas. Ammo bir haqiqat borkim, Napoleon bu shaharni biz kabi uchoq oynasidin tomosha qilish baxtiga hargiz muyassar bo‘lmagan. Voy-bo‘... Quyida Ovro‘po va Osiyoni naqd ikkiga bo‘lib turgan afsonaviy Bosfor ko‘rindi! Bo‘g‘oz bag‘ridagi ulkan po‘lat kemalar kitlardek sokin suzib bormoqda. Ular suv yuzini tilib o‘tarkan, ortlaridan ko‘pikli iz qoldiradi. Kema parraklarining suv ostidagi shiddatli harakati suv qa’rining tinchini buzadi. Bu kuchli bosimdan karaxt bo‘lgan mayda jonzotlar sarosima ichra tuyqus yuzaga qalqib chiqadi. Shu fursatni poylab uchgan chag‘alaylar sho‘rlik o‘ljalarini osongina tutib, laqqa-laqqa yutadi.

Ha-a, oltinsoch shoirlardan biri “Men Bosforda bo‘lmaganman hech...” deya o‘ksinib kuyganicha bor. Shaharning bir tomonini Marmar dengizi, bir yonini Qora dengiz yuvib turadi. Bu makon qadimda Vizantiy, keyin Konstantinopol, nihoyat, Istanbul bo‘ldi. Har devor, har tosh, har binoda bir tarix. Ayo Sofiyani ko‘rdik. Binosi azim. Gumbazi ulkan. Avval kaliso, keyin jome, bir muddat muzey, bugun yana masjid bo‘lgan. Yaqinida Sulton Ahmad jomesi-da bor. Uni turklar qadimgilarga bahs o‘laroq tiklagan. Koshinlari bisyor moviy. Galata minorasi ham qadim shaharning mashhur yodgorligidur. Allazamondan qolmish bu minorga chiqqan kishiga Istanbulning surati kaftdek namoyon bo‘lur. Gumbazlar, minorlar, qizil tomlar, ko‘priklar...

“Buyuring, efendim!” deya tavoze qiladigan tujjorlari bisyor. Ko‘chada o‘rindiq qo‘yib, mo‘ylabini bardoqqa bosgan, bir qo‘lida tasbehni aylantiradigan choyxo‘rlari-da ko‘p va xo‘p. Istanbulning ko‘cha taomi ham o‘ziga yarasha. Issiq simit sotarlar. Usti kunjutga to‘la. Do‘ner, ya’ni, biroz kuygan et hidi ko‘chani ishg‘ol aylagan. Paxlavasidan asal o‘lgur chakillab tomib turadi. Mayizli, pistali, shirindan shirin... Bir qo‘lingda simit, birida turkcha qahva, ikki ko‘zing Bosforda, e-he, bundan ortiq maza bormikan?

Madaniyati ham serqirra. Bir ko‘chaning o‘zida ham masjid, ham kaliso, ham sinagoh qad ko‘targan bo‘lsa, ulardan biroz narida devorga suyangancha sigar tutatib, g‘alati iljayib, kavush qaytarayotgan nojinslar-da topilur... Metro to‘la, avtobus, metrobus, funikulyor – hammasi liq to‘la. Ko‘chalar tirband. Turli tillardagi tinimsiz gap-so‘zlar, osmono‘par kulgular, paromlarning bo‘g‘iq ovozi, turkcha va arabcha kuylar, tramvay hamda mashina signallari, muzqaymoq sotuvchisining chaqiriqlari, ishqilib, shovqindan shovqin... Ammo ko‘ngilga xush yoqadigan allanechuk sokinligi bor... Bizning taqdimot esa shaharning Yevropa qit’asida joylashgan tomonida bo‘lib o‘tarkan. Demak, o‘tganketganga “Kitobimiz Yevropada ham o‘qiladi!” deb bemalol maqtansak bo‘ladi.

“KELDI OCHILUR CHOG‘ING...”

Istanbuldagi taqdimot “Turkiston ellari” ta’lim, madaniyat va o‘zaro yordam jamiyati boshqaruv kengashi raisi Hoshim Hamdam boshchiligida tashkil etildi. Boshdan oyoq milliy o‘zlikka yo‘g‘rilgan bu kishining bosib o‘tgan yo‘lini qalamga olsak, bir kitob bo‘lar... Uni, avvalo, “Bu kimning tili?” deb nomlangan mashhur she’ri orqali yaxshi tanishadi. Esingizda bo‘lsa, bundan bir necha yil avval Tabassum Jasur ismli qizcha ushbu she’rni to‘lqinlanib o‘qigan va tarmoqda mashhur bo‘lgan edi. She’rda Mahmud Koshg‘ariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi buyuk bobolarimiz yuksak hurmat va faxr bilan yodga olinadi. Muallifning fikricha, ushbu she’rda zamonaviy o‘zbek adabiyotining buyuk shoirlaridan biri Erkin Vohidov ijodi, ayniqsa, “O‘zbegim” qasidasining ta’siri kuchli seziladi. Hoshim afandi bir muddat Toshkentda yashagach, Turkiyaning Anqara shahriga ko‘chib o‘tgan va madaniy faoliyatini davom ettirgan.

Xullas, u kishi bizga butun safar davomida yo‘lchi yulduz bo‘ldi. Keyin bilsak, barcha dongdor darvozalarning kaliti uning cho‘ntagida ekan.

Hol-ahvol so‘rashib, taqdimot bo‘ladigan joyga yuzlandik...

MADANIYAT MAHALLASI

Istanbulning Zeytinburnu tumanidagi tarixiy To‘pqopi madaniyat bog‘iga kirib borarkanmiz, bizni butunlay boshqa bir olam kutib oldi. Bu yerda “Turkiy dunyo madaniyati mahallasi” (Türk Dünyası Kültür Mahallesi) joylashgan ekan. Unga 2009-yilda asos solingan, qariyb o‘n ming kvadrat metrlik ulkan maydonni egallagan. Kirishimiz bilanoq Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Shimoliy Kipr, Tatariston va Boshqirdiston kabi sakkiz qardosh o‘lkaning milliy uylari yelkadosh bo‘lib qad rostlaganini ko‘rdik. Har bir yog‘och uyning peshtoqida o‘sha davlatning milliy bayrog‘i hilpirab turibdi. Shundoqqina darvoza yonida VI-VIII asrlarga oid mashhur Kultegin va Bilga xoqon toshbitiklarining o‘z o‘lchamidagi maketlari o‘rnatilgan. Qadimiy turkiy yozuvlarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib, ajdodlarimizning shonli o‘tmishini his qildik. Biroz yurib, haqiqiy kigiz va teridan tikilgan, qurilishida birorta mix ishlatilmaydigan qozoq va qirg‘iz o‘tovlariga kirdik. U yerdagi qadimiy beshiklar, egar-jabduqlar, teridan qilingan idishlar kishini to‘lqinlantiradi.

Shuningdek, maydonda Bokuning “Qiz qal’asi” va Qirg‘izistondagi XI asrga oid “Burana minorasi”ning kichiklashtirilgan me’moriy nusxalarini ko‘rib quvondik. Majmuaning eng ramziy nuqtasi – ulug‘ mutafakkirimiz Xo‘ja Ahmad Yassaviyning Turkistondagi maqbarasi maketi va u zotning sukunatga boy hayotiga bag‘ishlangan ramziy o‘tovi bo‘ldi.

Tabiiyki, bizga ajratilgan hududning hozirgi holati sizni qiziqtiryapti. Borganimizda, u yerda O‘zbekistonning Istanbuldagi bosh konsuli Sherzod Abdunazarov, O‘zbekiston madaniyat, birdamlik va hamkorlik jamiyati rahbari Cho‘qay Ko‘char va ikki nafar dizayner qiz yurgandi. Salomlashib, gaplariga quloq tutdik. To‘g‘ri, madaniy qiyofamizni o‘zida aks ettirishi kerak bo‘lgan ushbu mo‘jaz uyda o‘ziga yarasha milliy ashyolarimiz bor. Masalan, devorlarni bezab turgan Samarqand, Xiva, Buxoro suratlari va Surxondaryoning rang-barang so‘zanalari, Marg‘ilon atlasi, Buxoroning zardo‘zlik to‘nlari va qo‘l mehnati bilan yaratilgan milliy cholg‘ularimiz – dutor, tanbur, naylarni ko‘rib, dilimiz ravshan tortdi. Lekin, bizningcha, bu kam, hatto juda kam... Biz borganda ayni shu kamomadni kamol toptirishning istiqbolli rejasi va muhandislik chizmasini tuzish bilan band bo‘lib turishgan ekan.

MAHALLA RAISI KIM?

Avgust oyining boshlari, tashqarida dim va nihoyatda issiq havo hukmron. Bizni o‘tov shaklida ishlangan, shinam, oynavand xonaga boshlashdi. Milliy tusdagi bu zamonaviy ofis devorlariga temuriylar davri me’morchiligiga xos naqshlar, xususan, musamman aks ettirilgandi va bu bizni g‘ururlantirdi, albatta. Chunki bu rahbarning xonasi!

Ichkariga kirishimiz bilan nafis naqshlar bilan bezatilgan an’anaviy qirg‘iz namati – kiyizini ko‘rdik. Devorlardagi har bir ashyo turkiy xalqlarning boy merosidan namuna edi. Bir tomonda qadimiy sovut va qalqonlar turgan bo‘lsa, ikkinchi tomonda ipak gilamlar va naqshinkor sopol idishlar ko‘zga tashlanardi. Xona ichi ancha salqin bo‘lib, tashqaridagi jazirama issiqdan so‘ng insonga chinakam rohat bag‘ishlardi.

“Turkiy dunyo madaniyati mahallasi” rahbari Abdulmetin Keskin bizni ochiq chehra bilan kutib oldi. U turkiy davlatlarning kichik milliy bayroqlari qator qilib terib qo‘yilgan ish stoli tomon taklif qilib, o‘tirishga joy ko‘rsatdi. Suhbat asnosida, u o‘zini tanishtirar ekan, asli Pomir qirg‘izlaridan ekanini aytdi.

Bu o‘rinda qisqacha tarixiy tushuntirish berib o‘tish joiz. Aslida, “Pomir xalqlari” deganda, Tojikistonning Tog‘li Badaxshon viloyati, Xitoyning Shinjon-Qashqar hududi hamda Afg‘onistonning shimoli-sharqiy qismlarida yashovchi, asosan, pomir tillarida so‘zlashuvchi qadimiy ellar tushuniladi. Ammo bu baland tog‘ tizmalarida qirg‘izlar nima qilib yuribdi, degan haqli savol tug‘iladi. Gap shundaki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Chor Rossiyasining bosqinchilik siyosati va tazyiqlaridan qochgan bir guruh Farg‘ona va Oloy qirg‘izlari Pomir tog‘lari bag‘riga, xususan, Afg‘onistonning baland va iqlimi nihoyatda sovuq Vaxon vodiysi, Ulug‘ va Kichik Pomirga borib o‘rnashgan edi. Ular Rahmonqul xon boshchiligida o‘zlarining an’anaviy ko‘chmanchi turmush tarzini saqlab, uzoq yillar davomida deyarli mutlaq qamal – izolyatsiyada yashadilar.

Biroq 1978-yilda Afg‘onistonda Savr inqilobi yuz berib, mamlakatda kommunistik rejim o‘rnatilgach, urush girdobi va siyosiy ta’qiblardan xavfsiragan qirg‘izlar Rahmonqul xon rahnamoligida Pomirni tark etib, Pokiston orqali qochishga majbur bo‘ldilar. Issiq iqlim va sanitariya sharoiti og‘ir bo‘lgan qochqinlar lagerlarida tog‘ havosiga moslashgan bu xalq juda katta talofatlarga uchradi. Oxir-oqibat, 1982-yilda Turkiya hukumati ularga boshpana berib, rasman muhojir sifatida qabul qildi. Hukumat ularga Van viloyatining Erkish tumanidan yer ajratib, shu yerda “Ulupomir” qishlog‘ini barpo etdi. Mana shu tariqa tarix solnomalarida “Van qirg‘izlari” nomi bilan tanilgan, o‘z madaniyati va tilini nisbatan sof holda saqlab qolgan o‘ziga xos bir jamoa Turkiya bag‘ridan qo‘nim topdi.

Qarshimizda turgan Abdulmetin akamiz aynan ana shunday murakkab, mashaqqatli va ayni paytda matonat talab qilgan tarixiy ko‘chishlarni boshidan kechirgan mag‘rur xalqning farzandi edi. Uning har bir so‘zida milliy qadriyatlarga bo‘lgan cheksiz sadoqat, Pomir tog‘larining mahobati va butun Turk olamiga bo‘lgan yuksak muhabbat yaqqol sezilib turardi. Suhbatdoshimizning aytishicha, taniqli qirg‘iz olimi, folklorshunos va etnograf professor Sulaymon Kayipov Turkiyaga ko‘chib kelgan Pomir qirg‘izlari orasiga borib, ular bilan naq o‘n yil birga yashaydi. Zamonaviy madaniyatdan uzilgan, deb o‘ylangan bu jamoa bag‘rida boshqa hech bir jug‘rofiy hududda saqlanib qolmagan qadimiy turkiy maqollar, unutilgan noyob iboralar va eng qimmatli etno-folklor qo‘shiqlar xuddi ming yil avvalgidek toza holatda saqlangan edi. Olim yillar davomida ularning og‘zidan eshitgan har bir so‘zni tasmalarga muhrlaydi va yakunda ularni “Turkiyada yashayotgan Pomir qirg‘izlarining maqol va laparlari” nomli muhtasham kitob holiga keltiradi. Eng hayratlanarlisi, hozirgi Qirg‘iziston davlati aynan Sulaymon Kayipovning mana shu noyob asarlarini qirg‘iz xalqi madaniyati va til tarixining eng bosh poydevori hamda sof asosi sifatida qabul qilgan.

Bizningcha, hali-hanuz yurtimizning chekka qishloqlarida, qo‘shni davlatlarda, ayniqsa, borish qiyin bo‘lgan tog‘li va sahro hududlarda sof o‘zbek tilining nodir so‘zlari, unutilayotgan matallar, laparlar, iboralar va shunga o‘xshash noyob nomoddiy madaniy meros parchalari saqlanib kelmoqda. Biroq ularni vaqt shafqatsizlarcha yutib yubormasidan avval qog‘ozga tushirish, tasmalarga muhrlash uchun bugun bizga “mingta Firdavsiy kerak”.

Tilning asl jozibasi insonning ichki kechinmalarida namoyon bo‘ladi. Avvalo, qirg‘iz professori Sulaymon Kayipov Pomir tog‘liklari bilan nega naq o‘n yil davomida bitta o‘tovda birga yashagan, deb o‘ylaysiz? Tilning ijtimoiy va ruhiy qatlamlarini faqatgina shunday yashash orqali kashf etish mumkin. Ular jahli chiqsa, qanday so‘zlar bilan g‘azabini sovutadi? Qaysi vaziyatda, qanday iboralar bilan so‘kinadi? Oyog‘iga to‘satdan og‘ir buyum tushib ketsa, og‘zidan qaysi so‘z otilib chiqadi? Hayratdan hapqirib ketganda yoki yaqin qardoshini yo‘qotganda qanday yig‘i-sig‘i qiladi, qanday ovunadi? Mana shu insoniy va jonli lahzalarni tarixga muhrlash uchun ham bizga hozir elkezar, ziyrak va fidoyi tilshunoslar, folklorshunos-etnograflar suv va havodek zarur.

Zero, bugungi kunda o‘zbeklar faqatgina O‘zbekiston ichida yashamaydi. Turkiy tillar jug‘rofiyasi va ko‘chishlar tarixini o‘rgangan olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, sof o‘zbek shevalari va qadimiy madaniy qatlamlar Janubiy Qozog‘iston (Chimkent, Turkiston vohasi), G‘arbiy Qirg‘iziston (O‘sh, Jalolobod, Botken), Shimoliy Afg‘oniston (Mozori Sharif, Maymana, Qunduz), G‘arbiy va Janubiy Tojikiston (Xatlon, So‘g‘d viloyatlari, Pomir atrofi) hududlarida, hatto tarix bo‘ronlari bilan Pokiston (Peshovar) va Turkiyaga (Hatay, Istanbul) borib joylashgan vatandoshlarimiz orasida hamon tirik. Ular yashayotgan iqlim va muhit tilni tashqi ta’sirlardan ma’lum ma’noda himoyalab, unda qadimiy turkiy ildizlarni saqlab kelmoqda. Agar biz bugun ekspeditsiyalar tashkil qilib, bu ulkan hududdagi til xazinasini yig‘masak, globallashuv davrida bebaho merosni bir umrga yo‘qotib qo‘yishimiz hech gap emas.

KITOB TANITIMI

8-avgust kuni “Turkiy dunyo madaniyati mahallasi”da “Hirotga, bobomning huzuriga!” kitobining taqdimoti bo‘lib o‘tdi. “Turk dunyosining umumiy merosi: Alisher Navoiy va Hirot xotiralari” mavzusida tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifiy uchrashuv adabiyot, tarix va milliy xotira masalalari atrofida fikr almashilgan muhim madaniy tadbirlardan biri bo‘ldi.

Uchrashuvni “Turkiston ellari” jamiyati rahbari Hoshim Hamdam olib bordi va unda O‘zbekistonning Istanbuldagi Bosh konsuli Sherzod Abdunazarov, taniqli olim va jamoat arbobi Temur Xo‘ja o‘g‘li, Bahrom Irzayev, Ziyo Qaysariy, doktor Ahmad Jovid Turko‘g‘li, Abdulla Atoyi, Nurali Qahramon, Ahmad O‘zbek, Aziz Elsever, Nur Ahmad Yurtdosh, Shugufa Urganch, “Turkiy dunyo madaniyati mahallasi” rahbari Abdulmetin Keskin, O‘zbekiston madaniyat, birdamlik va hamkorlik jamiyati rahbari Cho‘qay Ko‘char va boshqa olimlar, ijodkorlar hamda jamoat faollari ishtirok etdi. Ozarbayjon, Afg‘oniston, Suriya, Iroq va boshqa davlatlardan kelgan jamoat va madaniy tashkilotlar vakillari ham tashrif buyurdi. Turli mamlakat vakillarining bir davrada jam bo‘lishi tadbirning turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasi va madaniy aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan muloqot ekanini ko‘rsatdi.

Tadbir davomida Alisher Navoiy merosi, Hirotning turkiy adabiy va madaniy tarixidagi o‘rni, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy va adabiy merosi haqida fikrlar bildirildi. Olim va jamoat arbobi Temur Xo‘ja o‘g‘lining tarix, milliy o‘zlik va jadidlar merosi haqidagi fikrlari tadbir mazmunini boyitdi. Tarixchi Bahrom Irzayev esa umumiy merosni o‘rganish va uni keyingi avlodlarga yetkazish zaruratini ta’kidladi. Ziyo Qaysariy, doktor Ahmad Jovid Turko‘g‘li va boshqa ishtirokchilarning mulohazalari kitobda ko‘tarilgan tarixiy va ijtimoiy masalalarni yanada kengroq muhokama qilish imkonini berdi.

Tadbirda kitob taqdimoti bilan bir qatorda, yangi adabiy va ma’rifiy nashrlarni keng targ‘ib qilishga ham e’tibor qaratildi. “Jadid kutubxonasi” ruknida nashr etilgan “Millat fidoyilari”, “Botmasin chiqqan quyosh”, “Tilda, fikrda, ishda birlik!” kabi kitoblar va “Jadid” gazetasining ayrim sonlari ishtirokchilarga taqdim etildi. Shuningdek, “Yoshlik”, “Bobolar izidan Oltoyga” va “Bobolar izidan Ozarbayjonga” jurnallari ham o‘quvchilarga yetkazildi.

Tashkilotchilarning aytishicha, bu maskan Istanbuldagi o‘zbeklar uchun ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami munosabati bilan o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar ham shu yerdagi amfiteatrda tashkil etib kelinadi. Demak, To‘pqopidagi ushbu maskan turk dunyosining madaniy merosini namoyish etuvchi maydon bo‘libgina qolmay, xorijdagi o‘zbeklarning milliy bayramlari, madaniy uchrashuvlari va ma’rifiy tadbirlari o‘tadigan muhim manzillardan biri hisoblanadi.

Biz uchun uchrashuv kitobning navbatdagi taqdimotidan ko‘ra kengroq ma’no kasb etdi, u Hirotdan boshlangan ma’naviy safarning davomi bo‘ldi, desak-da, ayni haqiqatdir.

TIRIK TARIX BILAN SUHBAT

Istanbuldagi ushbu muhtasham taqdimotdan atigi bir kun avval tarix bizni yana bir taniqli siymo bilan yuzma-yuz keltirdi. Biz asli-nasli o‘zbek bo‘lgan, jahon miqyosidagi mashhur olim, professor Temur Xo‘ja o‘g‘li bilan uchrashdik. U kishi va yurtimizdan birga borgan millatsevar tarixchi olim Bahrom Irzayev hamrohligida g‘oyat maroqli va ta’sirli bir suhbat kechdi.

Tasavvur qilyapsizmi, qarshimizda turgan bu nuroniy zot – Buxoro Xalq Sovet Respublikasining birinchi Prezidenti, ulug‘ jadid rahnamosi Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning farzandi edi. Ayni paytda Temur Xo‘ja o‘g‘li AQSHning nufuzli Kolumbiya universitetida doktorlik unvonini olgan va uzoq yillar Michigan hamda Turkiya oliygohlarida dars bergan ilk o‘zbek olimi sifatida dunyo ilm-fanida ham alohida mavqega ega. U o‘z umrini Turkiston tarixi va jadidlar merosini dunyoga tanitishga bag‘ishlagan tirik qomusdir. Ishlari tig‘iz bo‘lishiga qaramay, biz bilan soatlab millat dardi, ajdodlar armoni va o‘tmish saboqlari haqida gurunglashganidan boshimiz ko‘kka yetdi. Ochig‘i, bu muloqot yurakni titratadigan tarixiy dramaning jonli namoyishi edi. Biz ustozning har bir so‘zi, qarashlari, armonli boqishlari, titroq ovozlari va ishoralarini tasmalarga muhrlab oldik. Bu xotiralar yaqin kunlarda alohida bir katta maqola, yaxlit bir ko‘rsatuv bo‘lishi, shubhasiz.

Suhbatda olim Buxoro jadidlarining rahnamolaridan bo‘lmish Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning sovetlar ta’qibidan qochib, Afg‘oniston, Pomir tog‘lari va Pokiston oralig‘idagi muzliklarda kechgan achchiq qismati haqida so‘zlab berdi. Shuningdek, siyosiy o‘yinlar qurboniga aylanib, aslida, otasini o‘ldirish uchun yollangan o‘z jigarbandini tanib qolgan va uni bir bor bo‘lsin bag‘riga bosa olmagan sho‘rlik otaning iztirobli daqiqalarini ko‘zda yosh bilan hikoya qildi. Ayniqsa, Buxoro oliy hukumatining qimmatli arxivlari va millat xotirasi bo‘lgan, lekin Turkiyaga ko‘chish jarayonida Marmar dengizi tubiga cho‘kib ketgan minglab nodir kitoblar fojiasini eshitganimizda, dahshatdan bir seskanib oldik.

Muhojirlikning so‘nggi zahmatli kunlari, umid va armonlar to‘qnashgan ushbu hayotiy drama asosida Temur Xo‘ja o‘g‘li yangi tarixiy roman yozayotganini ma’lum qildi. Mazkur samimiy mulohazalar va millat ko‘zyoshlari muhrlangan maqolamizni tez orada o‘quvchilar e’tiboriga havola etishdan umidvormiz.

“OLING-OLING, KELING-KELING”

Keyingi manzilimiz O‘zbekiston madaniyat, birdamlik va hamkorlik jamiyati binosi bo‘ldi. Eshik tepasida O‘zbekiston va Turkiya bayroqlari hilpirab turibdi. Liftga kirganda uchinchi qavat belgisi yonida bayrog‘imizni ko‘rib sevindik. Jamiyatda milliy qadriyatlarimizga aloqador deyarli barcha narsa bor. Bu yer Istanbulda o‘zbek madaniyati, milliy qadriyatlari va tarixiy merosini targ‘ib qilish bilan shug‘ullanayotgan jamoat tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Uning rahbari Cho‘qay



“Xudo davlat quyoshini turklar burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi... Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir...

Mahmud KOSHG‘ARIY

ONADO‘LIGA

Ko‘char Turkiyada yashovchi o‘zbeklar va O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyati bilan tanilgan. U Adana shahrida tug‘ilgan, kelib chiqishi marg‘ilonlik o‘zbek oilasiga borib taqaladi.

Jamiyat 2022-yil mart oyida tashkil etilgan. Qisqa vaqt ichida u Istanbuldagi o‘zbek madaniyatiga bag‘ishlangan tadbirlarda faol ishtirok eta boshladi. Xususan, o‘zbek san’ati, adabiyoti, milliy taomlari va an’analarini keng jamoatchilikka namoyish etishga qaratilgan madaniy kechalarda jamiyat va uning rahbari muntazam ishtirok etgan. Milliy liboslarimiz va an’anaviy cholg‘ularimiz bilan bezatilgan devorlarda Sherali Jo‘rayev, Nasiba Abdullayeva, Tojibar Azizova singari o‘zbek san’ati vakillari suratini ko‘rib, qalbimizda faxr va quvonch uyg‘ondi.

Jamiyat vakillari 2023-yil 6-fevralda Turkiyaning Qahramonmarash viloyati markazida sodir bo‘lgan kuchli zilzilalardan keyin hududdagi qutqaruv va gumanitar yordam ishlarida ham faol ishtirok etgan. Ular zilziladan jabrlangan hududlarda istiqomat qiluvchi o‘zbeklardan xabar olib, ularga amaliy ko‘mak ko‘rsatgan, O‘zbekistondan yuborilgan qutqaruvchilarning faoliyatiga ham yordam bergan. Keyinchalik zilzila oqibatlarini bartaraf etish jarayonida yangi maktablar va turar joylar barpo etilishi bilan bog‘liq ishlarga ham hissa qo‘shgan.

Bu yerdan chiqqach, Cho‘qay og‘a bizni Istanbulning butunlay boshqa, shinamgina go‘shasiga boshlab bordi. Bir eshikni asta taqillatdi. Bizni uxlaganda “tish”ini piyolaga solib qo‘yadigan ikki mushtipar onaxon ochiq chehra bilan kutib oldi. Bilsak, Cho‘qay og‘aning tug‘ishgan opalari ekan. Ismlarining ajoyibligini qarang, biri Yulduz, biri Farg‘ona... Suhbat qizigandan qizidi. Ular bizga bir-biridan ta’sirli, yurakni sel qiladigan xotiralarini so‘zlab berishdi. Alqissa, bu kichik xonada Vatanning qadri, Istiqlol va Mustaqillik deb atalmish ulug‘ ne’matning qanchalik bebaho ekani haqida dunyoni yum-yum yig‘latadigan gaplar aytildi. Muhojirlik zahmatini chekkan bu onaxonlarning tilidan to‘kilgan har bir ibora, lug‘atlarda topilmas toza so‘zlar, o‘zbekona go‘zal aytimlar biz uchun chinakam kashfiyot bo‘ldi. Farg‘ona ismli onamiz hech qachon O‘zbekistonda bo‘lmagan. Ismini otasi qo‘ygan. Azbaroyi Marg‘ilonni sog‘inganidan qiziga shunday ism qo‘ygan. “Agar bugun O‘zbekiston uchun joningni berasanmi, deyishsa, hech ikkilanmasdan berardim!” deydi Farg‘ona aya...

Tabiiyki, o‘zbeklar dasturxon atrofida jam bo‘lsa, bir-biriga “oling-oling, keling-keling”, deya mehmonnavozlik ko‘rsatadi. Ushbu so‘zlardan yuragi hapqirib, o‘tmishni eslagan Yulduz ayaning ko‘zlariga yosh keldi: “Otam rahmatlining bir gapi bo‘lardi. “Oling-oling, keling-keling” deb, Vatanni ham yovlarga qo‘shqo‘llab topshirib qo‘yganmiz...” Shukurki, qaytib oldik! Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin! Bilasizmi, O‘zbekiston jumhuriyati mustaqillik e’lon qilganida, men o‘zim ayol boshim bilan ikkita qo‘y so‘yib, beva-bechoraga tarqatganman. Butun mahalla ko‘chaga chiqib bayram qilganimiz hali-hali esimda...”

MILLAT KUTUBXONASIGA HADYA

Ertasi kuni tongda Anqaraga jo‘nadik. Shahar markaziga yaqinlasharkanmiz, bizga uzoqdan ko‘zga tashlanib turgan muhtasham va mahobatli binolarni ko‘rsatib, bu Turkiya Jumhuriyati Prezidentlik majmuasi, ya’ni mashhur Beshtepe ekanligini aytishdi. Uning hududida joylashgan, ushbu qarorgoh bilan uzviy bir butunlikni tashkil etuvchi dunyodagi eng yirik ma’rifat maskanlaridan biri – Millat kutubxonasi darvozasiga yaqinlashgan ham edikki... birdan osmonni tutib qarsa-qasr miltiqlar va zambaraklar ovozi yangradi! To‘satdan bir cho‘chib tushganimizni ko‘rgan hamrohlarimiz kulimsirab, xavotirga o‘rin yo‘qligini, Prezidentlik qarorgohining bosh maydonida oliy martabali xorijlik mehmon tantanali, rasmiy protokol asosida – 21 palla to‘p otish marosimi bilan kutib olinayotganini tushuntirishdi. Bu to‘plar bizning sharafimizga otilayotgandek his etib, kutubxona sari odimladik. Aslida, bu tarixiy uchrashuv doirasida Anqaraga kelgan oliy martabali mehmon – AQSH Prezidenti Donald Tramp edi. O‘sha lahzada biz Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va NATO doirasidagi eng yirik siyosiy muzokaralar kechayotgan xalqaro shov-shuvlar markazining qoq o‘rtasida turganimizni bilmasdik, albatta. Chunki biz ushbu muazzam bilim maskaniga faxrli yumush bilan kelgan edik.

Hoshim Hamdamning yozma iltimosnomasiga ko‘ra, bizni Turkiya Prezidentlik kutubxonalar departamenti boshlig‘i Ayhan Tug‘lu janoblari hurmat va samimiyat bilan kutib oldi. U kishiga



“Jadid” gazetasi tahririyati tomonidan berib yuborilgan kitoblarni taqdim etdik. “Jadid” kutubxonasi” ruknida chop etilgan kitoblar, gazeta va jurnallarning bir necha sonlarini qabul qilib olgan Ayhan Tug‘lu samimiy minnatdorlik bildirdi.

Ma’lumot uchun: Turkiyadagi eng ulkan ma’rifat maskani hisoblangan ushbu muassasa bir vaqtning o‘zida 5 ming kitobxonga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega. Binoda ilm-fan ummoni poydevorini tashkil etuvchi 5 milliondan ortiq bosma kitob, 2 milliondan ziyod davriy nashrlar hamda elektron shakldagi misli ko‘rilmagan 550 milliondan ortiq raqamli hujjat va maqolalar jamlangan. “Jahon adabiyoti” zalida esa dunyoning 134 mamlakatidan keltirilgan 100 dan ortiq tildagi nodir asarlar saqlanadi. Biz, albatta, kutubxonaning eng tabarruk qismlaridan biri bo‘lmish “O‘zbekiston” bo‘limini alohida hayajon bilan ko‘zdan kechirdik. Bu yerda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan chop etilgan muhtasham “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli yuz jildlik bebaho asarlar majmuasi, shuningdek, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining eng sara namunalari jahon kitob xazinasi to‘ridan joy olganidan quvondik, g‘ururlandik. Haftaning 7 kunida 24 soat uzluksiz ishlaydigan majmuada barcha tashrif buyuruvchilarga choy, qahva, shirinliklar, kunda ikki mahal sho‘rva hamda non mutlaqo bepul tarqatiladi.

E’tiborli jihati, kutubxonaning 2020-yil 20-fevralda bo‘lib o‘tgan tantanali ochilish marosimida Turkiya Prezidentining shaxsiy taklifiga binoan, eng oliy martabali va yagona xorijiy davlat rahbari sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga ishtirok etib, nutq so‘zlagan.

Yangi taqdim etilgan o‘zbekcha kitoblar ham ikki qardosh xalq o‘rtasidagi tarixiy va ma’naviy ko‘prikning davomi bo‘lishidan umidvormiz.

TURKSOYNI KO‘RDIK...

Aytgancha, bu orada Anqaraning eng go‘zal go‘shalaridan biri bo‘lmish xalqaro TURKSOY tashkilotining bosh ofisida ham bo‘ldik. Bu qutlug‘ maskanning eshiklari ham biz uchun madaniy hamkorimiz Hoshim Hamdamning beminnat yordami va ehtiromi bilan ochildi. Anqaraning shovqindan xoli, sokin va go‘zal bir manzilida qad rostlab turgan ushbu ma’rifat saroyiga yaqinlasharkanmiz, bino peshtoqida hilpiragan bayroqlar yonida “2026-yil uchun Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti – Andijon!” degan mahobatli yozuvga ko‘zimiz tushib, benihoya quvondik.

Binoda bizni umumturk birdamligi yo‘lida fidokorona xizmat qilayotgan jonkuyar insonlar – TURKSOY Bosh kotibi o‘rinbosari Sayit Yusuf, tashkilotning Muzeylar ittifoqi koordinatori, doktor Javid Barish Movsumli hamda tashkilotning O‘zbekiston bo‘yicha bosh mutaxassisi Avazxon Umarxonov o‘zbekona samimiyat bilan kutib olishdi. Biz ularga yangi chop etilgan kitobimizni taqdim etdik. Sovg‘amizni yuksak ehtirom bilan qabul qilishdi. So‘ngra tashkilotning keng va noyob kutubxonasi, madaniy bo‘limlari hamda istiqboldagi buyuk maqsad-vazifalari bilan yaqindan tanishdik.

Xalqaro TURKSOY tashkiloti umumiy madaniy merosimizni dunyoga tanitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilk Bosh kotibi sifatida 1993-yildan 2008-yilgacha faoliyat yuritgan ozarbayjonlik taniqli madaniyat arbobi Po‘lat Bulbulo‘g‘li xalqaro tizimning asosini yaratgan bo‘lsa, undan keyingi davrda, ya’ni, 2008–2022-yillarda qozog‘istonlik professor Dyusen Kaseinov ushbu ezgu harakatni muvaffaqiyatli davom ettirdi. Bugungi kunda tashkilotga qirg‘izistonlik taniqli yozuvchi va jamoat arbobi Sulton Rayev rahbarlik qilmoqda. Aynan Sulton Rayev boshchiligida hozirgi davrda O‘zbekiston bilan madaniy aloqalar yangi, yuksak bosqichga ko‘tarildi va ko‘plab noyob adabiy loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda.

QO‘NIYAGA, MAVLOMNING HUZURIGA!

Shu kuni tunda Qo‘niyaga otlandik. Nihoyat, turkiy ellarning faxri, mutafakkir shoir Mavlono Jaloliddin Rumiy (Balxiy) hazratlarini ziyorat qilish nasib etdi! Yil boshida Mavlono tug‘ilib o‘sgan va bolaligi kechgan tuproqlarga borib, otasi Bahouddin Valad qurgan xonaqohni ko‘rib edik.

Avval, bu yerda tahsil olayotgan o‘zbek do‘stlarimiz bilan uchrashib, mushoira o‘tkazdik. Suhbatimiz davomida Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Mavlono Rumiy merosini yodga oldik. Ular orasida afg‘onistonlik o‘zbek talabalar ham tahsil olmoqda. Mahalliy aholi ba’zan qiziqib: “Bu yerlarga nega keldingiz?” derkan. Ular muloyimlik bilan: “Mavlonodan so‘rang!” deyisharkan. Bu qiziq javobni ikki xil ma’noda tushunish mumkin. Birinchisi, “Biz Mavlono izidan ilm istab keldik”. Ikkinchisi esa yanada og‘riqli, Mavlono ham bolalik yillarida mo‘g‘ullar zulmidan, Chingizxon bosqinidan qochib, shu tuproqlardan qo‘nim topgandi. Turkiya esa asrlar osha o‘z an’anasiga sodiq qolib, ilm ahliga xavfsiz boshpana va tinch qo‘nimgoh hadya etdi.

U yerdan chiqib, Turkiya Yozuvchilar uyushmasi Qo‘niya bo‘limi rahbari Ahmed Ko‘seo‘g‘li bilan ko‘rishdik. U kishining hamrohligida turk dunyosining fidoyi olimi, doktor Mehmet Dog‘an kutubxonasini ko‘zdan kechirdik.

Ma’lumot uchun: olimning bashariyat va turk olami oldidagi eng buyuk ilmiy jasorati – bir o‘zi mualliflik qilgan, zamonaviy turk tilining eng muhtasham va mukammal xazinasi hisoblanuvchi “Büyük Türkçe Sözlük” (Katta turkcha lug‘at) asaridir. 1981-yilda ilk bor chop etilgan ushbu lug‘at ustida olim o‘nlab yillar davomida kunni tunga ulab, millatning til sofligini saqlab qolish uchun yakka o‘zi kurash olib borgan. Mehmet Dog‘an 1978-yilda bugungi kunda Turkiyadagi eng nufuzli adabiy tashkilot bo‘lmish Turkiya Yozuvchilar birligiga (TYB) asos solgan va uzoq yillar unga rahbarlik qilgan fidoyi tashkilotchi edi. Uning tashabbusi bilan 1992-yildan buyon har ikki yilda bir marta dunyoning turli qardosh o‘lkalarida (jumladan, O‘zbekistonda ham) o‘tkazib kelinayotgan mashhur “Turkiy tilli shoirlarning xalqaro she’r festivali” loyihasi qardosh ijodkorlarni bir adabiy dasturxon atrofida jamlashga xizmat qildi.

Mezbonimiz Ahmed Ko‘seo‘g‘li ham safarnoma yozar ekan. O‘zining aytishicha, “Shahar adabiyoti” bilan shug‘ullanadi. Yo‘lbitiklarining nomi ham qiziq: “O‘zini asragan shahar”, “O‘zini izlagan shahar” va “O‘zini topgan shahar”. Oxirgi kitobida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda ko‘rgan-kechirganlarini yozgan, ya’ni, bu shaharlar “O‘zini topgan”!

U kishi Xivaga borganda, ajib bir holga tushibdi. O‘zlaridan “eshiting”: “Sizga aytsam, efendim, garchi o‘zim Qo‘niyada tug‘ilib o‘sgan bo‘lsamda, O‘zbekistonga borganimda ona tilim asli o‘zbekcha ekanini angladim. U yerdagi odamlar ayni onamning shevasida so‘zladilar. Bu yaqinlik, ayniqsa, efendim, Xivada yaqqol sezildi! Onam aytgan “somsa“ kalimasi u yerda ham aynan bir shaklda yangradi! Ayni bir ohangda, ayni bir talaffuzda, anglayapsizmi, efendim, mana shu quloqlarim bilan, mana shu yuragim bilan sog‘ingan kalimalarimni yana bir tinglab, huzur tuydim, bale, chok duyg‘ulandim!”

Mavlono maqbarasini ziyorat qildik. Kiraverishda mayin musiqa yangrab, allaqanday xush ifor kishini sokin qilib qo‘yarkan... Mana, “Ma’naviy masnaviy” kabi dunyoni titratgan, zamonlar osha bashariyat tafakkurini lol qoldirib, qalblarga ishq olovini yoqqan buyuk mutafakkir, muhabbat va tasavvuf shoirining so‘nggi manzili... Saljuqiylar davlatining poytaxti bo‘lgan Qo‘niya shahri Mavlono sharofati bilan asrlar davomida tasavvuf va ilm markazi bo‘lib kelgan. Uni “Huzur shahri” ham deyisharkan. Qiziq payrovlari ham bor. Birov chetdan telefon qilib, “Qayerdasan?” desa, shu shahardagilar “Huzurdaman”, der ekan. Ya’ni, “Huzur shahrida”, “Mavlononing huzurida”, “Shu shaharda ekanimdan huzurdaman!” ma’nosida.

ORTGA YO‘L...

Bular safar davomida yo‘lma-yo‘l yozib olganlarimiz edi. Bu taassurotlar va yig‘ilgan materiallar yuzasidan yana ko‘plab maqolalar yozish mumkin.

Ortga qaytarkan, yo‘l boshida o‘ylaganimiz, “Qaytishda chamadonlar bo‘sh bo‘ladi”, degan o‘yimiz xomxayol ekani ma’lum bo‘ldi. Qayga borsak, kitob olib, kitob tutishdi. Alqissa, “Turkiston ellari” va O‘zbekiston madaniyat, birdamlik va hamkorlik jamiyatlari, Anqaradagi Millat kutubxonasi, Xalqaro TURKSOY tashkilotining bosh ofisi, Turkiya Yozuvchilar uyushmasining Qo‘niya bo‘limi, “Turkiy dunyo madaniyati mahallasi”, Temur Xo‘ja o‘g‘lining qutlug‘ dargohidan quruq qaytmadik... Qaytanga, chamadonimiz kelishdagidan-da og‘ir bo‘ldi. Endi buni qardosh tarozibonlarga tushuntirish qoldi. Kitob tortgan ma’rifat karvoni deganlari shu bo‘lsa kerak-da...

Shahriyor SHAVKAT,
Nozima HABIBULLAYEVA

OLAM OLIMI



Daron AJEMOG‘LU

kambag‘allikka qarshi kurashga ilmiy yondashgan nobelchi

HAYOT YO‘LI

Daron Ajemog‘lu 1967-yil 3-sentyabrda Turkiyaning Istanbul shahrida tug‘ilgan. 1986-yilda nufuzli Galatasaray litseyini tamomlagan. 1989-yilda Buyuk Britaniyaning York universitetida bakalavr darajasini qo‘lga kiritgan. 1992-yilda London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabida magistrlik va doktorlik darajasini olgan. 1993-yildan buyon AQSHdagi Massachusets texnologiya institutida faoliyat yuritadi va ushbu dargohning eng yuqori akademik maqomi – Institut professori unvoni sohibi hisoblanadi.

Olim ummon ortida faoliyatini davom ettirar ekan, ilmiy yutuqlari birin-ketin e’tirof etila boshladi. 2006-yilda Amerika san’at va fanlar akademiyasi, 2014-yilda AQSH Milliy fanlar akademiyasi, 2021-yilda esa Amerika Falsafa jamiyati a’zoligiga saylandi.

Bugungi kunda u jahonda eng ko‘p iqtibos keltiriladigan iqtisodchilardan biri hisoblanadi.

ILMIY MEROS

Ajemog‘luni dunyoga tanitgan eng yirik loyihalaridan biri – Chikago universiteti professori Jeyms Robinson bilan hammualliflikda yozilgan “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag‘allik manbalari” kitobidir.

Mualliflar institutsional islohotlarning davlatlar farovonligi va aholining turli qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishdagi ahamiyatini tushuntirib bergan. Xususan, inklyuziv institutlar yaratishning asosiy unsurlari korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat boshqaruvining shaffofligini oshirish va fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash ekanini ta’kidlaydi.

2019-yilda ikki olimning yana bir salmoqli kitobi – “Tor yo‘lak” asari chop etiladi. Unda davlat va jamiyat munosabatlari o‘rtasidagi muvozanat, shaxsiy erkinlik hamda erkin jamiyatni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

2023-yilda esa Ajemog‘lu hamkasbi Saymon Jonson bilan “Hokimiyat va taraqqiyot” kitobini yozdi. Asarda texnologiya va innovatsiyalar taraqqiyot omili bo‘lishi bilan birga, ulardan keladigan iqtisodiy foyda jamiyat a’zolari o‘rtasida qanday taqsimlanishi tahlil etiladi.

E’TIROF

2024-yilgi iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti “ijtimoiy institutlar qanday shakllanishi va farovonlikka ta’sir qilishini o‘rgangani uchun” Daron Ajemog‘lu, Saymon Jonson va Jeyms Robinsonga topshiriladi.

Muhim jihati: laureatlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy institutlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularning xalq farovonligiga ta’sirini tadqiq etadi, balki mustamlakachilik va siyosiy o‘zgarishlarning davrlar kesimidagi oqibatlarini o‘rganib, faqat ayrim guruh manfaatlari uchun tashkil etilgan institutlar oxir-oqibat kambag‘allikka olib kelishi mumkinligini aks ettirgan.

Bu esa asriy qaramlikdan qutilib, o‘zining mustaqil yo‘lini boshlagan davlatlar uchun muhim uslubiy qo‘llanma, tanqidiy-tahliliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jasmina ISROIL
tayyorladi.

DO‘PPIDEKKINA GAP

Boshlanishi 1-sahifada.

– Keling, suratga olavering, – dedim. – O‘tsa-o‘tdi, ruxsat berishmasa, shu ko‘rsatuvni to‘xtatamiz, ana qarang, suhbatdoshlar ham kutib qolishdi.

Tavakkal, deb ish boshlashdi. Ertasigayam, indinigayam hech gap yo‘q, tinchlik. Ko‘rsatuv efirga chiqdi hamki, biron nojo‘ya gap eshitilmadi. Qarang, bo‘lar ekan!

Hatto sovet zamonida ham o‘zbeklar SSSR Oliy Soveti sessiyalarida do‘ppi kiyib o‘tirar edi. Faqat do‘ppiga ruxsat bor edi. Do‘ppi hamma joyda e’zoz va e’tirof topgan edi. Keyin – yigirma yilcha, soqolingiz sal o‘siq ko‘rinsa yoki boshga do‘ppi kiygan bo‘lsangiz, tizzangiz qaltiraydigan bo‘pqoldi.

Do‘ppi o‘zbek, tojik, uyg‘ur, turkman, qora-qalpoq va yana boshqa ellarning asosiy bosh kiyimi. Biz do‘ppi deganda buklab taxlanadigan va yana qatlari yoziladigan, “ayvoni” bo‘lmagan bosh kiyimni ko‘zda tutamiz. U uyg‘urlarda doppa (toppa), tojiklarda toqi (tuppi), turkmanlarda taxya deb yuritiladi. Yaqin o‘tmishda bu xalqlarning ayollari ham (ayniqsa, yosh paytida) do‘ppi kiygan. O‘zbekistonda esa buning aksi. Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov bir-ikki marta do‘ppi kiyib ko‘rinish bergan edi, ijtimoiy tarmoqlarda uni talamagan, yozg‘irmagan odam qolmadi. O‘zbeklarning o‘zi do‘ppiga qarshi bo‘lib qolganmi, deysan. Ammo ba’zi hoji va umrachilar maqomini ko‘rsatish uchun uzun ko‘ylak kiysa, boshiga keffiya ro‘mol o‘rab, uni iqol bilan bog‘lasa ham, birov “Hoy, sen o‘zbekmisan?” deb dakki bermaydi.

Bizda do‘ppi kiyish kamayib boryapti. Ammo qiziq: do‘ppi kiyish kamaygani sari, do‘ppi haqida tadqiqotlar ko‘payyapti. Ilgari biz do‘ppi qanday shakllangan, uning gullari nimani anglatadi, deb bosh qotirib o‘tirmasdik, kiyar edik, vassalom. Holbuki, uning tagida butun bir tarix bor, falsafa bor, dunyoni anglash belgilari bor, deyishyapti olimlar.

Markaziy Osiyo tarixi va etnik jarayonlar bo‘yicha mutaxassis, sharqshunos, tarix fanlari doktori, professor Sh.Kamoliddin Feysbukdagi “O‘zbekiston tarixi” saytida 2020-yil 13-avgustda e’lon qilingan “O‘zbek do‘ppisi tarixidan” nomli maqolasida, jumladan, shunday deb yozadi:

“Do‘ppi erkaklarning ichki bosh kiyimi sifatida Sharq xalqlari, xususan, arablar, forslar, turklar va boshqalarda keng tarqalgan... Hozirgi vaqtda to‘rt burchakli do‘ppi faqat Sharqiy Turkistonda, Farg‘ona vodiysida va Toshkent vohasida tarqalgan.

...Hozirgi kunda Toshkentda kiyiladigan do‘ppi ham turli ranglarda bo‘lishi mumkin, lekin uning hech qanday naqshlari yo‘q. Farg‘ona vodiysi va Sharqiy Turkistonda kiyiladigan do‘ppilarda esa qora matoga oq iplar bilan tikilgan naqsh shaklidagi ramzlar mavjud: do‘ppining 4 ga bo‘lingan tepa qismi 4 ta bir xil yirik yaproqsimon naqshlar bilan bezatilgan; do‘ppining 4 ta yon qismida bir qatorga tizilgan yarim doira yoki toq shaklidagi 4 tadan (jami 16 ta) naqsh tasvirlangan. Mazkur hududlarda tarqalgan qizlarning bosh kiyimlari ham to‘rtburchak shaklida bo‘lib, lekin ularda ramzlar o‘rniga turli ranglardagi gulli naqshlar tikilgan.

Erkaklar do‘ppisidagi naqshlar yoki ramzlarning ma’nosi xususida... turlicha fikrlar aytilgan. Xususan, bu naqshlarni goh qirg‘ovulning qanoti yoki lolaning yaprog‘i, goh bodom yoki qalampirga o‘xshatishgan. Ba’zilarning fikriga ko‘ra, do‘ppining qora matosi yulduzli osmonni yoki o‘zida cheksiz ma’lumotlarni mujassam etgan butun Koinotni o‘z ichiga sig‘diruvchi “qora tuynuk”ni anglatgan. Do‘ppining tepa qismlaridagi 4 ta asosiy naqsh ona qornidagi 3 oylik bolaning homilasini, yon qismlaridagi aylanasiga bir chiziq bo‘lib tizilgan 16 ta toqlar esa yangi tug‘ilgan bolaning beshigini anglatgan. Toqlarning ichidagi nuqtalar o‘lganlarning so‘nib borayotgan nurini bildirgan. Koinot doimiy ravishda kengayib va qisilib boradi, tug‘iladi va o‘ladi. Oxir-oqibatda, Koinot yana qandaydir boshlang‘ich bir nuqtaga qaytadi. Shundan keyin yangi davr boshlanib, navbatdagi “katta portlash” yuz beradi. Yana yangi galaktikalar, yulduzlar turkumlari, hayot vujudga keladi...”

Bunday qaraganda, juda ilmiy – biz bilgan oddiygina do‘ppi asrlar davomida shakllanib shu holiga kelgani va unda yuz yilliklar davomida ajdodlarning dunyoqarashlari aks etgani aytilyapti. Ammo olimlar orasida, “Haqiqat etigini kiyib yo‘lga tushguncha, yolg‘on dunyoning yarmini aylanib chiqadi”, degan achchiq bir kinoya bor. Bu gaplarga ishonsak, kiyib yurgan do‘ppimiz shunchaki bosh kiyimi emas, butun dunyoning eng ulug‘ hodisalari tasvir etilgan kosmogrammadan iborat ekan, deb o‘ylab qolamiz.

Uning qora matosi yulduzli osmonni yoki o‘zida cheksiz ma’lumotlarni mujassam etgan butun Koinotni o‘z ichiga sig‘diruvchi “qora tuynuk”ni anglatgan emish. Do‘ppining tepa qismlaridagi 4 ta asosiy naqsh ona qornidagi 3 oylik bolaning homilasi emish va pastki aylanasidagi 16 ta toqlar esa “yangi tug‘ilgan bolaning beshigi” emish. Toqlarning ichidagi nuqtalar o‘lganlarning so‘nib borayotgan nuri bo‘lib, koinot doimiy ravishda kengayib va qisilib, tug‘ilib va o‘lib borib, oxir-oqibatda qandaydir boshlang‘ich bir nuqtaga qaytarkan. Shundan keyin yangi davr boshlanib, yana bir “katta portlash” yuz berarkan. Yana yangi galaktikalar, yulduzlar turkumlari, hayot vujudga kelar ekan... Shular bari do‘ppi ustiga ramz qilib chizilgan ekan. Bu yog‘ini anglamay, kiyib yura berar ekanmiz-da.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rib qoldim, bir opaxon yuqoridagi gaplarni bir albom qilib, odamlarga ko‘rsatib, targ‘ib qilib yuribdi. Unda ona qornidagi homilaning egilib turgan surati ham bor, boshqa tasvirlar ham. Kishilar angrayib tomosha qilyapti.

Avvalo, bu gaplar shu ayolning ixtirosi emas, Sh.Kamoliddinning yuqorida keltirilgan gaplari ko‘chirmasidan iborat. Opa buni biznesga aylantirib olibdi ham. To‘g‘ri fikr bo‘lsa, koshki edi-ya!

Turli kasalliklar ko‘p bo‘lgan, epidemiyalar tez-tez qaytalangan o‘tmish zamonlarda, odamlar najot qidirib, ming xil narsalarni o‘ylab, o‘zlaricha topganday ham bo‘lib, suq, kinna, ko‘z tegishidan ko‘rib, ins-jinslarni “qaytaradigan” narsalarni o‘ylab topishgan. Yangi tug‘ilgan farzandlarini ularning “kuchi yetmaydigan” qattiq narsalar – po‘lat, cho‘yan, bolta, tesha, o‘roq, tosh deb atashgan: Toshpo‘lat, Ketmonoy, Cho‘yanboy, Bolta, Tesha, Toshomon, O‘roqqul kabi yuzlab ismlar paydo bo‘lgan. Bola sal katta bo‘lgach, uning bo‘yniga yoki qo‘ltig‘iga tumor osib qo‘yilgan. Tumor ichiga tuz, qalampir yo murch kabi ins-jinslarni “qochiradigan” achchiq, taxir narsalar, ko‘z tegishini “o‘ziga oluvchi” ko‘zmunchoqlar solib qo‘yilgan. Tumor asosan uchburchak yoki to‘rtburchak shaklli bo‘lgan.

Ilgari har bir kishi uchun “ko‘z tegishi” asosiy xavf, zo‘r ofat sanalardi. Tibbiyot rivojlanmagani sababli, kim qanday kasalga uchrasa, avvalo, ko‘z tekkanga yo‘yilgan. Ko‘zdan, suqdan, kinnadan, “issiq-sovuq”dan saqlanish uchun hamma boshiga munchoq, qo‘ltig‘iga tumor taqib yurardi. Hatto hozir ham odamlar o‘zigagina emas, mingan otiga, qurgan uyiga, mashinasiga ham ko‘zmunchoq taqib, isiriq bog‘lab, yomon ko‘zdan muhofaza qilgan bo‘ladi. Buning uchun esa achchiq, taxir va o‘tkir sanchiladigan narsalar tanlanadi. Bu udum Markaziy Osiyo xalqlarigagina xos emas. Yevropa xalqlari (masalan, nemislar) ham “ko‘z tegmasin” deb uyiga piyoz shodasi yo qalampir osib qo‘yadi.

Qadimda o‘zbek do‘ppisi ham tumor singari uchburchak (uch bo‘lak matoli) qilib tayyorlangan, to‘rtburchak do‘ppi esa nisbatan keyin paydo bo‘lgan. Bu jihatdan, do‘ppi – tumorning katta bir shakliga o‘xshaydi. Uning ichiga emas, usti-tepasiga uchta (to‘rtta) qalampir bittadan chatib qo‘yilgan. Shuning uchun ham, XX asr boshlarigacha o‘zbek do‘ppisi hozirgiday qora taglikka oq ipak bilan emas, balki qizil, yashil, ko‘k, sariq, pistoqi va boshqa ranglarda tikilgan. Hozir ham uyg‘ur do‘ppilari turli rangda tayyorlanadi. Qalampir qizil bo‘lgani uchun o‘tmishda uning tasviri asosan qizil ipakdan tikilgan. Do‘ppi haqida gap ketganda “qalampirnusxa” deb ta’riflanishi shundan.

Ammo... hech kim uch oylik homila – embrion rasmini naqsh qilib tikib, do‘ppisini u bilan “bezab” yurmaydi. O‘zbekning tiynatida bu xil g‘ayritabiiy qadriyatlar yo‘q. Kimningdir homilasi tushgan bo‘lsa, uning shaklidan andoza olib o‘tirmay, ko‘mib qo‘yilgan, ovoza ham qilinmagan. Homila ona qursog‘ida qanday shaklda (egilib) yotishini “ko‘rish” va do‘ppi tepasida uning tasvirini chizish uchun hozirgi UZI uskunalari yo‘q edi. O‘zbeklarning (ayniqsa, er kishilarning) do‘ppi ustida homila rasmini chizdirib yurishi esa tasavvurga ham sig‘maydi. Nima uchun o‘zbek bosh kiyimida bunday tasvir bo‘lishi kerak, unda nega boshqa xalqlar bunday qilmaydi – buni ham tushunib bo‘lmaydi.

Do‘ppi kizagi ustidagi yarim doiralarning beshik ekanini, nuqtalar esa o‘lganlarning so‘nib borayotgan nuri ekanini payqash – g‘ayritabiiy fikrlash namunasi bo‘lsa kerak. Boshiga do‘ppi kiygan odam bunday deb o‘ylamaydi. Bizningcha, kizak atrofidagi yarim doiralar – munchoq shodasining “mulyaj”i. Qadimda munchoq shodasining o‘zi taqilgan. To‘rt tomonda to‘rttadan o‘n oltita yoki beshtadan bo‘lsa – yigirmata munchoq donasi u. Ma’lumki, munchoq ham ko‘z tegmasin uchun qo‘llanadi, undan bezak sifatida foydalanish – keyingi funksiya. O‘tmishda do‘ppi tepasiga qalampir, tevaragiga munchoq qadalgan. Keyinroq qalampir qurib, sinib, tushib ketishi, uvalanib to‘kilishi tufayli “mulyaj”dan foydalanish, ya’ni do‘ppi ustiga uning rasmini tikish urf bo‘ldi.

Yaqin yuz yilgacha o‘zbek do‘ppisi ham (uyg‘ur do‘ppisi kabi) rangli bo‘lgan, qalampir rasmi qizil tusda bo‘lgan. To o‘tgan asrning oltmishinchi yillarigacha bizda ham bolalar do‘ppisi rang-barang edi, tagligi asosan ko‘k yo yashil, ustidagi naqshlari qizil, pistoqi, oq va boshqa tusda bo‘lardi. Ayollar do‘ppisi atrofiga esa yaqinlargacha munchoq qadalgan. Keyinchalik u marjon bilan almashtirildi, ya’ni ko‘zmunchoqlik jihati ortga o‘tib, shaklan unga o‘xshash bezak ashyosi qo‘llana boshladi.

Ana endi, “do‘ppining qora matosi yulduzli osmonni yoki o‘zida cheksiz ma’lumotlarni mujassam etgan butun Koinotni o‘z ichiga sig‘diruvchi “qora tuynuk”ni anglatgani” haqida. Garchi tadqiqotchi bu gaplarni “ba’zilarning fikriga ko‘ra” deya keltirsa-da, davomida o‘zi ham bunga qo‘shilib, do‘ppida butun olamning modeli aks etganini aytadi, “koinot doimiy ravishda kengayib va qisilib boradi, tug‘iladi va o‘ladi. Oxir-oqibatda Koinot yana qandaydir boshlang‘ich bir nuqtaga qaytadi. Shundan keyin yangi davr boshlanib, navbatdagi “katta portlash” yuz beradi”, deb yozadi.

Ajab, “qora tuynuk” atamasini 1967-yili J.A.Uiler qo‘llagan, “katta portlash” nazariyasini Jorj Lemetr 1931-yilda kashf etgan edi-ku? Bizning do‘ppido‘z opalar ulardan necha asr avval bu astronomik hodisalarni kashf etib, kashtaga muhrlab qo‘ygan bo‘ladimi unda?

“Havoyi gaplarni gapirib o‘tirmaylik”, deb yozgan edi Abdulla Qahhor bir maqolasida. Shuning uchun ham “do‘ppi nazariyasi”ni bunyod etib, o‘ta ilmiy, ammo ishonish qiyin bo‘lgan farazlarni ilgari surgandan ko‘ra, uni kiyib, boshimizni baland ko‘tarib yurganimiz afzal.

Qayga borsam, boshda do‘ppim,
G‘oz yurarman gerdayib.
Olam uzra dong‘i ketgan
O‘zbekiston, o‘zbegim –

deya faxr-u g‘urur tuygan Erkin Vohidov taval-ludiga yaqinda to‘qson yil to‘ladi. Shunday ulug‘ shoirimiz hurmati uchun ham do‘ppini boshdan tushirmasak arziydi.

Gap shunchaki bir bosh kiyimida emas. Bilsangiz, oq qalpoq – qirg‘izning iftixori. Har yili 5-martda Qirg‘izistonda “Oq qalpoq kuni” o‘tadi. Bu sana katta bayram qilinadi, maktab bolasidan tortib, davlat rahbarlarigacha – barcha qalpoq kiyadi, millatidan, vatanidan faxrlanadi.

Do‘ppi – o‘zbekning o‘zbek ekanini ko‘rsatuvchi alohida belgi. Bizda ham 365 kunning bir kuni “do‘ppi kuni” deb belgilansa, ayni muddao bo‘lar edi. Ana o‘shanda do‘ppido‘zlikka e’tibor kuchayadi, bu hunar san’atga aylanadi, yo‘qolib borayotgan ne-ne do‘ppi turlari qayta tiklanadi, milliy bosh kiyimimiz yana boshimiz uzra yaraqlaydi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

JAHON AYVONIDA

ONLAYN ZO‘RAVONLIK

YUNISEF tadqiqotiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 12–17 yoshdagi har besh o‘smirdan biri internetda jinsiy tegajog‘lik qurboniga aylanmoqda.



Qayd etilishicha, 2025-yil 15 milliondan ziyod voyaga yetmaganlar nomaqbul kontentga duch kelgan. Shu bilan birga, 9 million o‘g‘il-qiz shunday mazmundagi suhbatlarga tortilgan bo‘lsa, 4 millionining shaxsiy suratlari ruxsatsiz tarqatib yuborilgan.

QORA BOZORDAGI VIZA

Afg‘onistonliklar uchun Eron vizasini rasmiy yo‘l bilan olish tobora qiyinlashmoqda. “Amu TV” telekanali xabariga ko‘ra, xorijdan ish izlayotgan fuqarolar hujjatni noqonuniy yo‘llar orqali xarid qilishga majbur bo‘lyapti.



Mamlakatdagi ishsizlik va iqtisodiy inqiroz odamlarni qo‘shni davlatga ketishga undamoqda. Biroq qora bozorda viza narxi 100–150 ming afg‘oniy (taxminan 2300 dollar)-gacha ko‘tarilgan bo‘lib, ko‘pchilikning bunga qurbi yetmaydi.

SAYYOHLAR TANLOVI

Joriy yil kuzida rossiyalik sayyohlar O‘zbekistonga ommaviy ravishda aviachipta xarid qilmoqda. Bu haqda “Lenta” nashriga taqdim etilgan “Tutu” sayohat servisi ma’lumotlarida so‘z boradi.



Mavsumda band qilishning o‘sish sur’ati bo‘yicha Markaziy Osiyo mamlakati mutlaq yetakchiga aylandi – ko‘rsatkich 5,2 foizga oshgan. Ro‘yxatda Turkiya ikkinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, kuchli beshlikni Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya yakunladi. Ayni paytda Belarus hamda Qozog‘iston yo‘nalishidagi talab pasaygani kuzatilgan.

ZAMON NAFASI

QUYOSH TOMLARGA QO‘NGANDA...



Yil boshida biror hafta Toshkentda dam olishda bo‘lib uyga qaytgach, dastlab ko‘zim tushgan narsa yon qo‘shnimiz – amakimning o‘g‘li tomiga o‘rnatilgan quyosh panellari bo‘ldi. Oz emas, naqd yetmishta panel tunuka tomning qibla tarafini deyarli egallagan edi. Amakimning hali uylanmagan o‘g‘li bir yilcha xorijda ishlab, yaxshigina pul topibdi. Ishlab topgan puliga boshqa tengqurlari kabi yengil mashina xarid qilmabdi. Oldindan reja qilgani – quyosh panellari o‘rnatibdi. “Telefon orqali buyurtma berdim, o‘zlari keltirib, o‘rnatib ketishdi. Endi uyim hamisha charog‘on, qolaversa, ortiqcha energiyani elektr ta’minoti idorasiga sotaman. Bu borada shartnoma ham tuzdim. Qishning sovuq va bulutli kunlarida har kuni taxminan to‘qqiz ming so‘mlik elektr energiyasi sotyapman. Bahor-u yozda bu miqdor besh-o‘n barobarga osharkan. Har oyda bir yarim – ikki million beminnat pul hisobimga tushib tursa, yomonmi?” deydi u.

Ikki yil oldin qo‘shni qishloqlik tog‘amning nevarasi ham bog‘i to‘rida “kichik quyosh elektr stansiyasi” qurgan edi. Kichik stansiya deganimiz, bir sotixcha maydonga o‘rnatilgan quyosh panellari oyiga xonadon iste’molidan tashqari uch ming kilovattgacha elektr toki ishlab chiqarmoqda. Har kilovatt uchun elektr ta’minoti idorasi unga ming so‘mdan haq to‘layapti. Foyda uning besh kishilik oilasi uchun bir oylik oziq-ovqat va boshqa xarajatlarga yetib ortyapti.

“Quyosh panellarini o‘rnatish uchun ikki yuz million so‘m sarfladim. O‘sha pulni ortiqcha ishlab chiqarayotgan tokni sotish orqali olti-yetti yilda qoplar ekanman. Bu yoqda ro‘zg‘orim ishlatadigan tok tekin. Oldinlari qishda uyni isitish uchun oyiga elektr energiyasi iste’moliga ikki-ikki yarim million so‘m to‘lardim. Qisqasi, yiliga tok uchun o‘rtacha o‘n million so‘mcha pulim ketardi. Buniyam qo‘shsak, ikki yuz million so‘mga o‘rnatgan quyosh panellarim kamida yigirma besh yil xizmat qilishini aytsam, yigirma yil ro‘zg‘orimni boqarkan”. Bu so‘zlar oliy ma’lumotli iqtisodchiga emas, yigirma yetti yashar oddiy hunarmand yigitga tegishli.

Katta qizim maktabda direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi, kuyovim bank xizmatchisi. Ular birinchilardan bo‘lib tomiga quyosh panellari o‘rnatishgandi. Qizim quvonib e’tirof etishicha, oldinlari elektr iste’moli uchun qish oylarida maoshining yarmini sarflagan. Mana, uch yilki, bir tiyin ham to‘lashmayapti, aksincha, har oyda ortiqcha tokni sotib, ro‘zg‘origa ishlatishga o‘tishgan. *“Yozda oyiga bir million so‘m atrofida tok sotamiz. To‘g‘ri, bizlar o‘sha vaqtlari atigi besh kilovattlik quyosh panellari o‘rnatgandik. O‘n va undan ortiq kilovattli quyosh panellari o‘rnatganlar bundan ham ko‘proq topishyapti. Kuyovingiz bu yil yana qo‘shimcha quyosh panellari o‘rnatishni o‘ylayapti. Topgan pulimizni farzandlar o‘qishiga sarflasak yomonmi?”* deydi u.

Qishlog‘imizdagi o‘rtahol oila ham o‘tgan kuz adog‘ida tomiga quyosh panellari o‘rnattirdi. Endi davralarda, ba’zida elektr ta’minotida uzilishlar sodir bo‘lganidan norozilik bildiradigan qo‘shnilariga, shunday maslahat beradi: ***“Bir sigirimni sotdim, o‘zlari kelib bir zumda quyosh panellarini o‘rnatib berishdi. Chiroq qachon o‘chadi, degan tashvish yodimizdan chiqdi. Hisoblasam, har yili elektr uchun bundayroq bir buzoq pulini to‘lar ekanman. Bu yil shu buzoq yonimga qoldi – bir yilda rosmana ho‘kizga aylanadi. Shu quyosh panellarini o‘ylab topganlarga, uni o‘rnatayotganlarga rahmat!”***

Xorazm vohasida quyosh panellari o‘rnatila boshlaganiga hali bir muchal vaqt o‘tganicha yo‘q. Avvallari tomlarda yarqirab turadigan quyosh panellarini onda-sonda uchratardingiz. So‘ngi ikki yilda quyosh panellari o‘rnatish rusmga kirdi, hatto ayrimlar kimo‘zarga poyga boshlagandek. Qo‘shnisi o‘rnatganidan quvvati ikki hissa ko‘prog‘ini buyurtma qilayotganlar qancha.

Bozor iqtisodiyotining yozilmagan qonuni shuki, narx-navoni talab va ehtiyoj belgilaydi. Ya’ni, qaysi mahsulotga talab katta bo‘lsa, narxi ham oshadi. Bozor siyosatining ushbu o‘zgarmas qoidasi quyosh panellariga kelganida ojizlik qildi. Ikki yil oldin 10 kilovatt tok ishlab chiqaradigan quyosh panellarini oltmish million so‘mga o‘rnatib berishgan bo‘lsa, bugun bu narx 32 million so‘mga tushgan. Oldinlari quyosh panellari o‘rnatish uchun qay bir MCHJ shaklidagi tadbirkor eshigiga iltimos bilan borgan bo‘lsangiz, bugun tadbirkor o‘z xizmatini ijtimoiy tarmoqlar orqali taklif qilib, qo‘ng‘iroq qilgan zahotingiz eshigingizga kelyapti. Yana quyosh panellari o‘rnatadigan tadbirkorlar eng kamida bir yilgacha kafolat berib, tizimda biror nosozlik bo‘lsa, o‘z hisoblaridan tezkor ta’mirlash, nuqsonlarini tuzatishni zimmalariga olishgan.

Tarmoqda ishlaydigan tanishimning aytishicha, hozirda Xorazm viloyati quyosh panellari o‘rnatish ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublikada eng ilg‘or ekan. O‘tgan yili barcha fermer xo‘jaliklari egalari elektr tokida ishlaydigan suv chiqarish nasoslari uchun quyosh panellari o‘rnatishdi va uning samarasini bir yildayoq sezishdi. Oldinlari sug‘orish mavsumida oyiga ishlatilgan tok uchun 30-40 million so‘m pul to‘laydigan fermerlar ortiqcha chiqimlardan xalos bo‘lishgan. Bugun qishloqlardagi umumiy ovqatlanish shoxobchalari ham deyarli to‘laligicha quyosh nuri hisobidan taomlar tayyorlashga o‘tgan. Tuproqqal’a tumani hududidagi bo‘sh yotgan qumliklarda yirik quyosh elektr stansiyasi barpo etishga o‘tgan yili kirishilgandi. Bu yangi quyosh elektr stansiyasi tufayli viloyatni elektr bilan ta’minlash ko‘rsatkichi deyarli 90 foizga yetadi. Bu – yil davomida, ayniqsa, qishning qorli-qirovli kunlarida ham elektr ta’minotida uzilishlar ro‘y berishi tarixga aylanadi, degani.

Prezidentimiz bir selektor yig‘ilishida “og‘ir” toifadagi 903 ta mahallada 300 kilovattli kichik quyosh stansiyalari qurilishini aytgandi. Garchi “kichik quyosh stansiyalari” deyilayotgan bo‘lsa-da, aslida, bu tipdagi har bir stansiyaning quvvati kamida yuz xonadonni uzluksiz tok bilan ta’minlashga yetadi.

Yana bir yangilik: endi “davlat toifasidagi oila” ro‘yxatiga kiritilgan oilalarga quyosh panellari o‘rnatishlari uchun BHMning 100 baravari, ya’ni 42,2 million so‘m miqdorida subsidiya beriladi. Demak, bugun “havodan pul ishlayotgan” o‘ziga to‘q va o‘rta qatlam vakillari qatoriga kambag‘al oilalar ham qo‘shiladi.

O‘tgan asrning 90-yillarida uylar tomida parabol antennalar uchrardi. Bu yangilikni hazillashib, “Yalla” ansamblining mashhur qo‘shig‘iga qiyoslab, “tom boshida tog‘ora” deyishardi. Endilikda tomlarni quyosh panellari “ishg‘ol qilish”ni boshlagan. Buning afzal tomoni, chiqimidan kirimi ko‘pligi, ya’ni, uyingizda o‘tirib, qo‘lingizni sovuq suvga urmasdan, havodan – quyosh nuridan pul ishlab topishingiz mumkinligidir.

Ro‘zimboy HASAN

MILLAT FIDOYILARI

RO‘YXAT BOSHIDA



Hasanxon Niyozov

Qatag‘on bir xonadon eshigini bir marta emas, qayta-qayta buzib kirgan hollar ko‘p edi. Bir oiladan aka-uka, ota-bola, hatto bir necha avlod vakillarining siyosiy ayblovlar girdobiga tortilishi 1930-yillar fojiasining eng og‘riqli sahifalaridan. Gazetaning o‘tgan sonlarida Husanxon Niyozov taqdirini yoritar ekanmiz, arxiv hujjatlari bizni yana o‘sha xonadonga – bu safar akasi Hasanxon Niyozov qismati tomon eltdi.

Hasanxon Niyozov 1895-yili Andijon shahrining “Birlik” dahasida ma’rifatli oilada dunyoga kelgan. Otasi Matmusa (Muhammad Musa) ulamo, onasi Hanifa aya otin edi. Oilada ilm va ma’rifatga munosabat alohida bo‘lgan. Keyinchalik o‘g‘li Odilxon Niyozovning xotirlashicha, onasi savodli ayol bo‘lgani bois, Hasanxon to‘qqiz yoshidayoq xat-savodi chiqib, bemalol o‘qish-yozishni bilgan. So‘ng Andijondagi madrasalardan birida tahsil olib, arab va fors tillarini o‘rgangan. Shuning uchun o‘zi mustaqil ravishda dunyoviy fanlar bilan birga mumtoz adabiyotimizning yirik vakillari haqida ham ko‘proq bilim olishga intilgan. “Otamiz o‘z zamonasining o‘qimishli, madaniyatli, ma’rifatli vakili, Andijon viloyati ma’naviyati va istiqloli yo‘lida kurash olib borgan ziyolilar yetakchisi, diniy va dunyoviy bilimlarga ega bo‘lgan, xalq ichida katta obro‘ va hurmat qozongan kamtarin inson edi”, deydi u.

Matmusa eshon o‘g‘illarini o‘zining ma’rifiy yo‘lini davom ettiruvchi vorislar sifatida ko‘rishni istardi. Hasanxon 1917–1927-yillar davomida otasining ra’yini qaytara olmay, diniy qonun-qoidalarni, ularning kelib chiqishidan tortib shakllanishi va taraqqiy etishiga qadar bo‘lgan masalalarni chuqur o‘rganishga harakat qilgan. Qahramonimiz islom dinining qonun-qoidalarini chuqur bilgan, diniy xurofotlarga qarshi turuvchi arbob bo‘lib yetishgan edi. U hamyurtlariga islom dini yo‘l-yo‘riqlari, ko‘rsatmalari va shariat qoidalarini tushuntirish orqali islom madaniyati va ma’rifatini o‘rganishga chaqirar edi. Shuningdek, sovetlar hukumatining din haqidagi siyosatiga hamohang g‘oyalar va ta’limotlarga tayanib ish ko‘rardi.

Biroq Hasanxon Niyozov hayotining bu yillari faqat diniy-ma’rifiy faoliyat bilan kechmagan. Keyinchalik to‘ldirilgan tergov anketasida uning 1920–1923-yillarda “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zo bo‘lgani va unga raislik qilgani qayd etiladi. Aynan shu o‘tmish oradan o‘n yildan ziyod vaqt o‘tgach, qatag‘on tergovining asosiy ayblovlaridan biriga aylanadi.

1927-yili Matmusa eshon vafot etgach, ko‘pchilikning talabi bilan Hasanxon otasining ishini zimmasiga olishga majbur bo‘ladi. Bu ish uzoqqa bormaydi. Chunki sovetlar hukumatining islomga qarshi kurashi keskin tus oladi, masjid-u madrasalar yopiladi, din xodimlari ta’qib qilina boshlanadi. Shunday tahlikali sharoitda bu faoliyatni uzoq davom ettirishning imkoni qolmaydi. 1932–1934-yillarda Hasanxon Niyozov Andijon suv xo‘jaligi idorasida mirob bo‘lib ishlaydi. 1934-yildan shahardagi 18-to‘liqsiz o‘rta maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritib, ayni paytda o‘qituvchilar tayyorlash bilim yurtining kechki bo‘limida tahsil oladi. Shu tariqa, uning keyingi hayoti maktab, ta’lim va kundalik mehnat bilan bog‘lanadi.

Ammo o‘tmishdagi siyosiy faoliyat qatag‘on idoralari xotirasidan o‘chmagan edi. 1937-yildagi asosiy hibsdan avval ham Hasanxon siyosiy boshqarma tomonidan ushlanib, besh kun qamoqda saqlangan, biroq unga hech qanday modda qo‘yilmasdan ozod etilgan. 1937-yil yoziga kelib, mamlakatni qamrab olgan qatag‘on to‘lqini uning eshigini yana taqillatadi. *“Shu sabab dadam va bizning o‘rtamizdagi aloqa to‘xtaydi”,* deb yozadi Hasanxon Niyoziyning katta o‘g‘li – uzoq yillar Andijon davlat universiteti tarix fakultetida dekan lavozimida faoliyat ko‘rsatgan olim, Odiljon Niyozov.

Iyul boshlarida O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining Andijon sektori xodimlari jadidlardan Hasanxon Niyozov, Abdujalil Haydarov va Abdumutalib Qoramandiyevning uyida tintuv o‘tkazib, ularni hibsga oladi. Hasanxon Andijondagi mashhur Latazavoddagi turmaga olib ketiladi. Shu tariqa, maktabda bolalarga saboq berib yurgan muallimning hayotida endi sinfxona o‘rnini qamoqxona, dars o‘rnini esa uzluksiz so‘roqlar egallaydi. Oradan to‘rt oy o‘tib mahbusning anketasi rasmiylashtiriladi. Unda Hasanxonning 115-uyda yashagani, 18-maktabda o‘qituvchilik qilgani, partiyasiz, ma’lumoti o‘rta ekani va xizmatchi qatlamiga mansubligi qayd etiladi. Oila a’zolari qatorida 31 yoshli rafiqasi Tohira Qoziyeva, to‘rt farzandi, onasi Hanifa Ahmedova hamda ikki ukasi tilga olinadi. Ulardan biri Toshkentda o‘qituvchilik qilayotgan ukasi Husanxon Niyozov edi. Ammo tergov anketasida qayd etilgan bu ismlar ortida qolgan oila taqdiri endi Hasanxonning o‘ziga qarshi boshlangan og‘ir tergov jarayoni soyasida qoladi.

Ko‘pdan ko‘p tergovlar iskanjasida qahramonimiz kun-u tunning istalgan daqiqalarida so‘roq qilingan, guvohlar bilan yuzlashtirilgan. Hasanxon Niyozov barcha qiynoqlarga chidagan. O‘ziga qo‘yilayotgan ayblarni rad etgan. 1937-yil 1-noyabr. Tergovchi undan “Milliy ittihod”ning sobiq raisi sifatida tashkilot a’zolarining sovetlarga qarshi faoliyati haqida batafsil ma’lumot talab qiladi. Hasanxon esa avval aytganlaridan boshqa faktlarni bilmasligi va eslay olmasligini ta’kidlaydi. Tergovni, tabiiyki, bunday javob qoniqtirmas edi. So‘ngra undan surgundan qaytgan Abdumutalib Qoramandiyev bilan munosabatlari so‘raladi. Hasanxon uning do‘koni va choyxonasida besholti bor uchrashganini yashirmaydi. 1937-yil qishidagi uchrashuvlardan birida Qoramandiyev gazeta o‘qib o‘tirgani va mamlakatda kechayotgan sud jarayonlari haqida: “Qimmatli kishilar ustidan sud jarayoni ketyapti, axir ular Oktyabr revolyutsiyasi uchun kurashgan edilar, endi ularni sud qilishyapti”, deganini bayon qiladi. Oddiy suhbat, bir og‘iz fikr, tanish inson bilan bir necha bor uchrashish – qatag‘on mantig‘i ishga tushgan sharoitda bularning har biri siyosiy ayblov zanjirining navbatdagi halqasiga aylantirilishi mumkin edi.

Ichki ishlar xalq komissarligi Andijon sektori 3-bo‘lim boshlig‘i, davlat xavfsizligi katta leytenanti Berg tomonidan 28 nafar mahbusga nisbatan ayblov xulosasi tayyorlanib, ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi”ga taqdim etiladi. Mahbuslar ro‘yxatida Hasanxon Niyozovning ismi birinchi bo‘lib qayd etilgan edi.

Ushbu 28 nafar mahbusga VKP(b) Markaziy Komiteti va sovet hukumati rahbarlariga, shuningdek, “xalqlar dohiysi”ga qarshi terrorchilik kayfiyatini ifoda etish, partiyaning markscha-lenincha milliy siyosatiga tuhmat qilish, “xalq dushmanlari” deb e’lon qilingan trotskiychi-buxarinchilar, qo‘poruvchilar va josuslarning rejalariga xayrixohlik bildirish, fashistlarga ijobiy munosabatda bo‘lish kabi umumiy ayblar qo‘yilgan. Shuningdek, ular sovet xalqining ahvoli va Stalin konstitutsiyasi to‘g‘risida aksilinqilobiy tuhmatlar tarqatish hamda muhojirlikka chiqib ketishning afzalliklarini targ‘ib qilishda ham ayblangan.


Hasanxon Niyozovga qo‘yilgan ayblar esa yanada og‘irlashtiriladi. Ayblov xulosasida uning 1928-yil avgustida o‘z uyida yig‘ilish o‘tkazgani, unda Abdujalil Haydarov, ukasi Husanxon Niyozov, Boqi Mahmudiy, Zokir Nusratov va boshqalar ishtirok etgani qayd etiladi. Tergov talqiniga ko‘ra, Hasanxon 1919–1921-yillarda Mahkam hoji qo‘rboshi boshchiligidagi harakatda qatnashgan, 1921-yili “Milliy ittihod” tashkilotiga raislik qilgan va uning yig‘ilishlarini o‘tkazgan.

Ayblov shu bilan cheklanmaydi. U 1936-yilning noyabrida o‘z maslakdoshlari orasida sovet hokimiyatiga qarshi fikrlar tarqatish, yapon fashistlarini maqtash, aholi o‘rtasida “musulmonobod” davlatini tuzish g‘oyasini targ‘ib qilish, bosmachilarning sovet hokimiyatiga qarshi kurashini yoqlashda ayblanadi. Shuningdek, 1931-yili Abdujalil Haydarov bilan birgalikda Muso Nurullo hojining muhojirlikka chiqib ketishiga ko‘maklashgani ham uning “jinoyat”lari qatoriga qo‘shiladi.

Shu tariqa, turli yillardagi voqealar, uchrashuvlar, suhbatlar va eski aloqalar bitta ayblov zanjiriga tiziladi. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66- va 67-moddalari bilan rasmiylashtirilgan bu ayblovlar Hasanxon Niyozovning taqdirini hal qilish uchun yetarli, deb topiladi. Sud ham bo‘lmaydi. O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi “uchligi” ayblov xulosasiga asoslanib, Hasanxon Niyozovni otuvga hukm qiladi. Oila uchun esa 1937-yil iyul oyida to‘xtagan aloqa abadiy ayriliqqa aylanadi.

Hasanxon Niyozovning o‘g‘illari keyinchalik otasining ilm yo‘lini davom ettirdilar. Katta o‘g‘li Odilxon Niyozov tarix fanlari nomzodi, dotsent bo‘lib, Andijon davlat universitetida qariyb oltmish yil faoliyat ko‘rsatdi. Uning yana bir o‘g‘li Nohid Niyozov texnika fanlari doktori, professor bo‘lib, respublika miqyosida turli rahbarlik lavozimlarida xizmat qildi. Farzandlar otasi nomidan “xalq dushmani” degan tamg‘aning olib tashlanishini uzoq kutishlariga to‘g‘ri keldi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor



“O‘zimizdagi hurmatni o‘zimiz yo‘qotmasak, uni bizdan hech kim tortib ololmaydi...

Maxatma GANDI

IZDOSH

yoxud tafakkurni tahrir qilgan alloma

Boshlanishi 1-sahifada.

Akademik Ibrohim Mo‘minov afsonaviy o‘zbek muharrirlari orasida alohida mavqe kasb etadi. U shunchaki ilmiy matnlarni tahrir qilgan olim emas, balki O‘zbekistonda ilk ilmiy jurnal, milliy ensiklopediya, fan targ‘iboti, akademik tahrir madaniyati va ilmiy muharrirlik institutini shakllantirgan buyuk ma’rifatparvar shaxs hisoblanadi.

Alohida ta’kidlashni istardimki, Ibrohim Mo‘minov hodisasini, qaysidir ma’noda, jadidlar g‘oyasining realizatsiya bosqichi sifatida ham baholash mumkin. Jadidlar millatni ilm bilan uyg‘otish, maktabni yangilash, xalqni dunyo ilm-faniga yaqinlashtirish, o‘z tilida zamonaviy bilimlar tizimini yaratishni orzu qilgan edi. Behbudiy, Fitrat, Avloniylar avlodi bu orzuni matbuot, maktab, darslik, teatr va publitsistika orqali ilgari surdi. Ibrohim Mo‘minov esa ana shu ma’rifatparvarlik orzusini sovet davrining ziddiyatli sharoitida ilmiy muassasa, jurnal, qomus, broshyura, atama va ilmiy muharririyat darajasiga ko‘tardi.

Bu bog‘liqlik tasodifiy emas. Ibrohim Mo‘minov Samarqand ilmiy-adabiy muhitida shakllandi. U yerda Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Hamid Olimjon, Bahrom Soliyev, Yahyo G‘ulomov kabi ziyolilar bor edi. Fitratdek ma’rifatparvar bilan bir muhitda bo‘lish, undan saboq olish, ustozlar boshlagan ilm, til, tarix va milliy o‘zlik haqidagi bahslarni ko‘rish Ibrohim Mo‘minov dunyoqarashida chuqur iz qoldirganini anglash qiyin emas. Shu ma’noda, u jadid ma’rifatparvarligi bilan sovet davri ilmiy muassasalari o‘rtasidagi ko‘prik edi.

Yana bir muhim jihatni alohida ta’kidlash kerak. Yaqin-yaqinlargacha o‘zbek matbuotida bosh muharrirdan tashqari “ilmiy muharrir” degan mas’ul shaxs ham bo‘lgan. Jurnalist – qomusiy olim emas. Murakkab ilmiy, tarixiy, falsafiy, tibbiy yoki texnik mavzularni xalqchil tilda yoza oladigan olimlar esa har davrda ham sanoqli bo‘lgan. Shuning uchun ilmiy muharrir matbuotda juda muhim vazifani bajargan. U akademik ilmiy tilda yozilgan maqolalarni xalqchil bayon qilishda tahririyatlarga ko‘maklashgan. Afsuski, bugun ham zamonaviy ilmlar, xususan, IT sohasida yozadigan ixtisoslashgan jurnalistlar, ilmiy muharrirlarga katta ehtiyoj bor. Matbuotdagi iqtisodiy qiyinchilik yillarida “ilmiy muharrir” degan maktab yo‘qolib ketgan.

Mavzuga qaytib aytganda, Ibrohim Mo‘minov ana shu muqaddas missiyani institutsional darajaga ko‘targan shaxs edi. U 1957-yilda “Fan va turmush” oynomasining asoschi bosh muharriri, 1957–1974-yillarda “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” jurnali bosh muharriri, 1958–1974-yillarda “Bilim” respublika jamiyati raisi bo‘lgan. Shuningdek, u O‘zbek qomusi bosh tahririyatining tashkilotchisi va birinchi bosh muharriri sifatida ham tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Shu yerda sovet davrida yashagan katta ziyolilar qismatiga xos juda nozik va murakkab nuqta bor. “Bilim” jamiyati sovet mafkurasi doirasida ishlagani, u orqali ilmiy ateizm, sotsializm g‘oyalari va partiyaviy qarashlar ham targ‘ib qilingani haqiqat. Buni inkor etib bo‘lmaydi. Ammo Ibrohim Mo‘minovning buyukligi shundaki, u ana shu mafkuraviy cheklovlar ichida turib ham, ilm-fan, milliy tafakkur va buyuk tarixiy xotira targ‘ibotiga imkon topgan. U “Bilim” jamiyati imkoniyatlari orqali xalqchil ma’ruzalar, risolalar, broshyuralar, ilmiy-ommabop nashrlar chop ettirdi. Ilm-fan sohasidagi yangiliklar maktab, kutubxona, chekka tumanlar, madaniyat uylarida o‘qilgan ma’ruzalar orqali xalq shuuriga kirib bordi. Odamlarda fanga nisbatan qiziqish kuchaydi. O‘sha davrda kichik bir broshyura ham ba’zan gazeta va jurnallardan qolishmaydigan ta’sir kuchiga ega bo‘lardi. Undagi maqola, ma’ruza matni, ilmiy-ommabop risola o‘quvchini tarix, falsafa, adabiyot, tabiiy va ijtimoiy fanlar haqida o‘ylashga undardi. Bugungi internet davrida bu ta’sirni tasavvur qilish qiyin. Ammo o‘sha paytda broshyura, jurnal, qomus va ma’ruza jamiyat tafakkurini tarbiyalaydigan katta maktab edi.

Ayniqsa, olimning o‘zbek qomusi bilan bog‘liq xizmatlarini alohida baholash kerak. Ensiklopediya tuzish – faqat ma’lumot yig‘ish emas. Bu millatning bilim xaritasini yaratishdir. Qomus orqali xalq o‘z olimi, tarixi, shaharlari, daryolari, adabiyoti, san’ati, qahramonlari haqida tizimli tasavvurga ega bo‘ladi. Shu ma’noda, kengroq qaralsa, ensiklopediya tahririyatining tashkil topishi mustaqil davlatchilik ruhi, orzusi yashab qolishi uchun muhim zaruriy voqea edi. Har qanday millatning saviyasi faqat shoirlari yoki siyosatchilari bilan emas, o‘zini qanday tushuntirishi bilan ham o‘lchanadi. Ensiklopediya – millatning o‘zini o‘zi tushuntirish maydoni. Unda tarix ham, geografiya ham, adabiyot ham, san’at ham, iqtisod ham, tibbiyot ham, texnika ham, falsafa ham yaxlit bir tizimga tushadi.

Shu bois, O‘zbek qomusi bosh tahririyati oddiy nashriyot emas, milliy tafakkur laboratoriyasi edi. Bu laboratoriyada faqat maqolalar tahrir qilinmagan. U yerda hozirgi o‘zbek ilmiy, siyosiy, badiiy va media tilining muhim qatlamlari shakllangan. Qaysi atamani qanday berish, qaysi tushunchaga qanday o‘zbekcha muqobil topish, ruscha yoki baynalmilal terminni qanday moslashtirish, xalqchillik bilan ilmiy aniqlik o‘rtasida qanday muvozanat saqlash – bularning barchasi muharririyatning kundalik, ammo tarixiy ahamiyatga ega ishlari edi.

Bu ishning qiymati beqiyos. Chunki atama – faqat so‘z emas, u – fikrlash vositasidir. Millat o‘z tilida ilmiy atama yarata olmasa, murakkab fikrni ham o‘z tilida to‘liq ifoda eta olmaydi. Demak, atamashunoslik ham milliy tafakkur uchun kurashning bir ko‘rinishi, deyish mumkin. Afsuski, matbuot tarixini yozayotganlar ko‘pincha nashr etilgan gazeta va jurnallarga qaraydi. Holbuki, ilk o‘zbek Qomusi ilmiy hay’ati yig‘ilishlarining stenogrammalari, tahrir muhokamalari, atamalar yuzasidan tortishuvlar – bugungi o‘zbek tili va matbuot tafakkurining shakllanish jarayonini anglash uchun bebaho manbalardir. Hozirgi siyosiy til, badiiy til, ilmiy til va media tilining muhim qatlamlari aynan shu muharririyatda, shunday bahslarda, shunday mas’uliyatli qarorlarda pishib yetilgan.

Bu tizimli sa’y-harakatlar besamar ketmadi. 1960–1970-yillarga kelib,



O‘zbekistonda fanning qadrini tushunadigan, zamonaviy ilmiy matnni o‘qiy oladigan, o‘z tarixi, falsafasi, adabiyoti, arxeologiyasi va tilshunosligiga qiziqadigan, jon-jahdi bilan himoya qiladigan ziyolilar, olimlar avlodi yetishib chiqdi. Bu jarayon ortida, shubhasiz, Ibrohim Mo‘minov asos solgan ilmiy tahririyat, ommabop risolalar, jurnallar va qomuslar ham turardi.

O‘zbekistonda 1967-1968-yillarda Amir Temur shaxsiga munosabat tubdan o‘zgardi. Boshqacha aytganda, sovet ideologlari tomonidan balchiqqa botirilgan Sohibqiron nomi vataniga sharaf to‘nini kiygan holda mag‘rur qaytdi. Gap shundaki, 1967-yilda Alixon To'ra Sog‘uniy tarjimasidagi “Temur tuzuklari” “Guliston” jurnalida e’lon qilindi. 1968-yilda esa akademik Ibrohim Mo‘minovning Amir Temur haqidagi maqolasi jurnalda chop etildi. Bu voqealar sovet davrida Amir Temur merosiga xolis qarash yo‘lidagi jasoratli qadamlar edi. Milliy ruh kuchayib borardi, jamiyat “Guliston”ni yutoqib o‘qiy boshladi, uyg‘onish kayfiyatining cho‘qqisi – 1968-yili jurnalda chop etilgan Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasi bo‘ldi. G‘oya tez ommalashdi, ta’kidlash joizki, Abdulla Oripovning 1971-yili “Sharq yulduzi”da bosilgan “O‘zbekiston” qasidasi ham mana shu milliy uyg‘onish kayfiyati mahsuli edi.

Umuman, bu voqeliklarning mumtoz ahamiyati shundaki, u milliy ijtimoiy fikr taraqqiyotida tub o‘zgarishlar nuqtasi bo‘lib qoldi. Ibrohim Rahim, Ibrohim Mo‘minov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi oydinlar bu yo‘lda o‘z lavozimi, mavqeyi va xotirjamligi bilan badal to‘ladi. Ammo muhim missiya bajarilgan edi: jamiyatda tarixni qayta baholash, milliy davlatchilik merosiga boshqacha nazar bilan qarash kayfiyati kuchaya boshladi. Keyinchalik, 80-yillarga kelib milliy uyg‘onish, o‘zlikni anglash va ozodlik g‘oyasi keskinroq ravishda kun tartibiga chiqqani bejiz emas. Chunki bu davrga kelib yakkam-dukkam jasoratli ziyolilar emas, xalqning o‘zi ham tarixiy o‘zanlarga qaytish zaruratini his eta boshlagan edi.

Bilonihoya, Ibrohim Mo‘minov matnni tahrir qilgan olimgina emas, qaltis zamonlarda millat tafakkurini tahrir qilgan buyuk ma’rifatparvar shaxs edi.

Behzod QOBULOV

TAASSUROT

BUGUN BAYROQ KIMDA?



Bizda jadidlar asos solgan, yuz yillik tarixga ega san’atshunoslik fani bor. Bo‘lganda ham, uyg‘oq va tezkor san’atshunoslik. Masalan, nafaqat sahnaga qo‘yilgan spektakllarga, balki hali ijro qilinmagan pyesaga, hattoki san’atga oid voqea-hodisalarga ham munosabatlar bosilgan. Muhiddin Qoriyoqubovning qo‘shiqlari yoki Halima Nosirovaning sahnaga chiqishi yangi taqrizlar bilan kutib olingan.

Umumxalq bayramlari munosabati bilan o‘tkaziladigan maydon tomoshalari ham keng ko‘lamli mavzu. Oxirgi marta Bahodir Yo‘ldoshev rejissyorligida qo‘yilgan maydon tomoshalariga Shuhrat Rizayev taqriz yozgan edi, adashmasam. Lekin yangi avlod san’atshunoslari ichida maydon tomoshalariga professional fikr bildiradiganlar ko‘rinmayapti. Holbuki, maydon tomoshalari – qamrovi keng, katta san’at asaridir. Unda bir vaqtning o‘zida bir nechta san’at turlari sintez qilinadi. Shu jihatlari bilan uni ulkan estetik hodisa deyish mumkin. Xususan, poytaxtimizda o‘tadigan bosh bayram tantanalariga san’atshunoslar munosabati, professional taqrizning yo‘qligi, baribir, yaxshi emas. Faqat tarmoq faollarining tomoshabin sifatidagi taassurotlari mavjudligi ziyolilarni hushyor torttirishi kerak. Qolaversa, har bir ijodkor mehnatiga munosib baho olishni istaydi. Bu faqat rag‘bat, qalam haqi emas, balki mutaxassislarning maqolalarida ham o‘z aksini topadi. Balki bu yilgi Mustaqillik bayramining asosiy tantanasi bo‘yicha professionallar chuqur tahlilga kirishgandir. Ungacha baholi qudrat ko‘z oldimizda o‘tgan bayramni tahlil qilishga harakat qildik.

YANGI MANZIL – YANGI DAVR IFODASI

O‘tgan 35 yil ichida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan maydon tomoshalari lokatsiyasi bir necha bor o‘zgardi. Birinchi bor “Xalqlar do‘stligi” san’at saroyi maydonida, ma’lum vaqt Mustaqillik maydonida bo‘ldi. Keyin Milliy bog‘ga ko‘chdi. 2021-yildan bayram “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida nishonlana boshladi. Bu – Yangi O‘zbekistonni bunyod etish g‘oyasining ramziy ifodasini berdi. Joriy yilda shodiyonalar Yangi Toshkentda o‘tkazildi. Lokatsiyaning o‘zgarishi faqatgina tadbirni u yoqdan bu yoqqa olish emas, bu g‘oyaviy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy markaz o‘zgarayotgani belgisi, daraja ko‘tarilayotgani dalolatidir.

Tashkilotchilar faqat yangi bunyodkorlik samarasini xalqqa va jahonga ko‘z-ko‘z qilishni reja qilmagan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bayramda nutq so‘zlar ekan, jumladan, shunday dedi: “Bugun biz tarixning yanada mas’uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo‘ymoqda. Kelgusi o‘n yillik – biz uchun **milliy yuksalish davri** bo‘ladi”. Demak, yangi lokatsiya yangi davr debochasiga guvoh va ushbu davr islohotlari kechadigan makon markazi o‘laroq tanlangan.

* * *

Yana bir e’tiborli jihati, tadbir ssenariysini tuzishda erkinlik va xalqchillik, zamonaviylik va retro taronalarga urg‘u berilgan. Avval odat bo‘lgan “bir artist faqat bir marta sahnaga chiqsin”, “faqat jiddiy qo‘shiqlardan repertuar tuzilsin” kabi qoliplar buzilgan. Yoshlar va ustozlar bir sahnani to‘ldirib turibdi. Ayniqsa, jahon opera san’ati ustalarining chiqishi bayram auditoriyasini jahon miqyosida kengaytirishga ham xizmat qilgan. Oxir-oqibat, tantanalar odamlarga quvonch bag‘ishlash uchun o‘tkazilmaydimi? Nazarimizda, bu yil ushbu vazifa har qachongidanda a’lo uddalangan.

TO‘RT ASOS

Bir paytlar “Hurriyat” gazetasida “Bayroq – boyroqlarda” degan luqma chiqqan va bu istehzo 2000-yillar boshidagi jamiyatimiz manzarasiga baho sifatida jaranglaganday edi. Xo‘sh, bugun bayroq kimda? Yangi Toshkentda o‘tgan tantanali marosim mazmuniga qaralsa, bugun bayroq – xalqchil davlatda ekani anglashiladi. Prezident o‘sha 2016-yili aytganidek, davlat davlatchiligini qildi, mana endi, qat’iyat bilan o‘tkazilgan islohotlar o‘n yilligi natija berishni boshladi. O‘sdik, ravnaq topdik, kuchaydik.

Davlatchilik nima o‘zi? Prezident nutqi milliy davlatchiligimiz ijtimoiy tafakkurining shonli tarixi, hozirgi bosqichi va ertasi haqida muayyan tasavvur beradi: **“Biz 1991-yilda xalqimizning xohish-irodasi va qat’iyati bilan o‘z davlat mustaqilligimizni qo‘lga kiritdik. Aslida, buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an’analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi.**

...Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqmoqda”.

Ushbu ezgu va yuksak g‘oya sahnada qanday ifoda topdi? Subyektiv kuzatuvda to‘rt asos e’tiborimni tortdi.

Birinchisi, bayroqlarimiz. O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva yozgan edi:

Yurt bayrog‘in
har joygamas,
Ko‘nglingga ek.
Ko‘ksingga o‘y!

Yaqingacha ham yurt bayrog‘i deganda, mustaqil O‘zbekistonning davlat ramzlaridan biri tushunilardi, xolos. Tarix haqida gap ketsa, Amir Temur tug‘i yodga olinardi. Biroq endi qarashlar tubdan o‘zgardi. Milliy o‘zlikni anglash davrida yurt bayrog‘i tushunchasi uch ming yillik davlatchilikka tegishli bayroqlarni o‘zida mujassam etdi. Tantanada baland ko‘tarilgan 16 ta bayroqning har biri shu xalqning iftixori, ajdodlar merosi va buyuk vorislik dalilidir.

Butun konsert davomida davlat bayrog‘i e’tibor markazidan tushmadi. Xalqimiz ham buni g‘urur va iftixor bilan qarshi oldi. Ko‘pincha: “Turkiya va Ozarbayjonda bayroqqa munosabat boshqacha. Bizda nega unday emas?” degan kuyunchak savollar quloqqa chalinardi. Bu masalada: “Mana, bizda ham bayroqqa ehtirom bor”, deb kampaniyabozlikni boshlab yuborish mumkin edi. Lekin milliy iftixor asta-sekin xalqning qalbiga kirib borishi, odamlarning o‘zi tashabbuskor bo‘lishi yo‘lida oqilona siyosat yuritildi.

Mana, bayroqni hazrat Kubroday ishonch bilan tutadigan xalq shakllandi. Ayniqsa, “Bayroqni kim ko‘taradi?” degan savol har bir vijdonli fuqaro yuragida aks sado berganiga, shaxsan, men ishonaman.

Ikkinchisi, Shayboniyxon endi o‘gay emas. Yana bir og‘riqli masalaga e’tibor berildi. Ya’ni, tarmoqlarda bahs mavzusi bo‘layotgan holatga uzil-kesil nuqta qo‘yildi. Shayboniylar davlati milliy davlatchiligimizning uzviy bo‘lagi sifatida namoyish etildi. Biz Shayboniylarning ham vorislarimiz. Ular o‘gay emas. Davlatdor va zotdor ajdodlarimizning ichki ziddiyatlarini o‘rta asrlardan bu kunlarga sudrab olib o‘tmaymiz. Tarixiy jarayon deb qaraymiz.

Uchinchisi, Boburiylar davlatining ham vorislari – biz. Asosiy bayramda boburiylar saltanati ham eslandi, tug‘lar hilpiradi. Shoh Zahiriddin Boburga rasmiy doiralarda shoir va olim sifatida o‘rin berilgan edi. Endi u podishohi turkiy bo‘lib, Yangi Toshkentning bosh rasmiy tantanasida ot surdi: maydon uzra boburiy tug‘ni ko‘rarkan, hayajonning zo‘ridan: “Aytgum, bu kun, u manim, manim”, deb yubordim.


To‘rtinchisi, o‘zbekcha raqs qaytdi. Xorazm “Lazgi”si jangovar to‘n kiydi, to‘g‘rirog‘i, asliga qaytdi. Biz Kavkaz xalqlarining jo‘shqin va shiddatli, erkakcha o‘yinlariga rom bo‘lib yurganimizda, baletmeysterlar o‘zlikka qaytarishni uddaladi. Bu kayfiyat, uslub trend darajasiga chiqishidan umidimiz bor.

Bu satrlar, albatta, bir tomoshabinning taassurotlari. Agar ushbu bayram haqida professional taqrizlar e’lon qilinsa, yana qancha timsol qatlari ochilib, ma’no javohirlari yuzaga chiqadi. Vaqt kutmaydi, biz esa kutamiz, aziz san’atshunoslar!

Otabek BAKIROV

YANGI KITOBLAR

NAQSHSIMON



O‘zbekiston xalq shoiri Shukrullo ijodi o‘zbek zamonaviy adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Shoir bir she’rida shunday yozgan:

Ko‘zguga o‘yilgan go‘zal naqshsimon
Ilk sevgi qalbingdan aslo ko‘chmaydi.
Bezak, ko‘rki bo‘lib yashaydi har on,
Ko‘zgu sinmaguncha
u ham o‘chmaydi.

Qalbdan aslo ko‘chmaslik va o‘chmaslik tavsifini xotiralarga naqshsimon muhrlanguvchi she’rlarga-da, tatbiq etmoq mumkin.

Shu ma’noda, Shukrulloning yaqinda nashrdan chiqqan “Tanlangan asarlar”i adabiyot ixlosmandlari uchun qiziqarli bo‘lishi, shubhasiz. Kitobga adibning turli yillarda yozilgan she’r va tarjimalari bilan bir qatorda, “Javohirlar sandig‘i” nomli adabiy o‘ylarga monand essesi hamda “Kafansiz ko‘milganlar” nomli avtobiografik ezgin qissasi ham kiritilgan.

SIRLI SADOLAR

Zamonaviy adabiyotimizning ilk fantast yozuvchilaridan biri Hojiakbar Shayxov asarlari – “Rene jumbog‘i”, “Yettinchi operatsiya”, “G‘aroyib ko‘lanka”, “Olmos jilosi” yo “Yonar daryo”, “Sehrli qiz”, “Tutash olamlar”, “Jodugarning eri” yoki “Ikki jahon ovorasi” singari kitoblari bo‘ladimi, barchasida sirli olamlardan sado yangrab turganday.

“Hojiakbar asarlarida hozirgi fantastik adabiyotning hamma zarur belgilari mavjud, – deb yozgan edi atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov, – ya’ni, ulardagi voqealar Yerdagina emas, butun Koinotda, qo‘shni Galaktikalarda sodir bo‘ladi... Biroq voqealar silsilasi qanchalik g‘ayritabiiy kechmasin, qahramonlar qanchalik g‘aroyib bo‘lmasin, ular, oxir-oqibatda, qay bir tomonlari bilan Yerdagi odamlarning bugungi hayotiga, bugungi tashvishlariga bog‘lanib ketadi. Adib bir-biridan qiziq, maroqli sarguzashtlar to‘qib, kitobxon xayolini band qilishni emas, balki insonning mangu muammolarini o‘rtaga tashlab, inson vijdoniga murojaat



qilib, uni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish va barkamolroq qilishni o‘ylaydi”. Bu fikrlarning isbotini adibning yaqinda chop etilgan “Tanlangan asarlar”iga kiritilgan mashhur romanlari, fantastik hikoya va qissalari misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu ikki salmoqli kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan.

Nigina ISKANDAROVA

RAQAMLAR TILI

QIYOSIY KO‘RSATKICHLAR

Doimiy aholi soni (1-yanvar holatiga)
1991-yil – 20,6 mln kishi
2026-yil – 38,2 mln kishi

Yalpi ichki mahsulot hajmi
1994-yil – 6,4 mlrd AQSH dollari
2025-yil – 147,1 mlrd AQSH dollari

Tashqi savdo aylanmasi
1991-yil – 3,3 mlrd AQSH dollari
2025-yil – 82,8 mlrd AQSH dollari

Eksport hajmi
1991-yil – 1,8 mlrd AQSH dollari
2025-yil – 34,2 mlrd AQSH dollari

Investitsiyalar hajmi
1991-yil – 1,1 mlrd AQSH dollari
2025-yil – 48,5 mlrd AQSH dollari

Qurilish ishlari hajmi
1995-yil – 611 mln AQSH dollari
2025-yil – 25 mlrd AQSH dollari

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
1991-yil – 3 mlrd AQSH dollari
2025-yil – 87,5 mlrd AQSH dollari

Oliy ta’lim tashkilotlari soni
1991/1992-o‘quv yili – 52 ta
2025/2026-o‘quv yili – 215 ta

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni
1991/1992-o‘quv yili – 8 557 ta
2025/2026-o‘quv yili – 11 118 ta

Shifoxonalar soni
1991-yil – 1 388 ta
2024-yil – 1 972 ta

Aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi
1991-yil – 66,4 yosh
2025-yil – 75,4 yosh

Turistlar tashrifi
2012-yil – 1,9 mln nafar
2025-yil – 11,7 mln nafar

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-yanvar)
2010-yil – 201 mingta
2026-yil – 474,9 mingta

MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 426
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 856
Lotin yozuvida – 11 570
Media kuzatuvchilar – 91 497
Buyurtma: G – 940
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir: Otabek Bakirov
Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI